

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI**

O‘zbek tili yo‘nalishi

13.42-guruh bitiruvchisi Vaxabjonova Muslimaning

**“Saddi Iskandariy” dostonining leksik-semantik
xususiyatlari” mavzusidagi**

BITIRUV-MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: N.UMAROVA,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Farg‘ona – 2017

MUNDARIJA

Ishning umumiy tavsifi.....	4
I bob. O'zbek tilida lug'aviy-ma'noviy guruhlar.....	8
I.1.Navoiy asarlari tilining tadqiqi	8
I.2. Navoiy asarlari tilida leksik me'yorlar.....	13
I.3. Leksemalarning leksik ma'no asosida guruhlanishi	16
I.4. Ot leksemalarning semantik guruhlari.....	20
Bob yuzasidan xulosa.....	62
II bob. “Saddi Iskandariy” dostonida qo'llangan leksik birliklarning semantik xususiyatlari.....	30
II.1.“Saddi Iskandariy” dostonida <i>kema, yer va tuhfa</i> leksemalarining semantik xususiyatlari.....	30
II.2. Dostonda <i>oltin</i> leksemasining semantik xususiyati.....	42
II.3.Dostonda tabiat tasviriga oid eng muhim leksik birliklar(bahor fasli misolida).....	44
II.4. “Saddi Iskandariy” dostonida qo'llangan hayvonot nomlari.....	49
II.5. Dostonda tibbiy tushunchalarni ifodalovchi asosiy leksik birliklar..	51
II.6.Dostonda qo'llangan milliy-madaniy leksik birliklar.....	53
Bob yuzasidan xulosa.....	55
Umumiy xulosa.....	57
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	62

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek: “Hozirgi paytda hammamizning oldimizda juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masala, ya’ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo‘lgan muhabbatini, ularning ma’naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi”.¹ Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek, haqiqatan ham, insonni ma’naviy jihatdan yuksaltirishda, avlodlar ruhiga ajdodlarning milliy qadriyat va an’alarini singdirishda, inson qalbini poklashda hech bir manba kitob, ayniqsa, badiiy adabiyotning o‘rnini bosa olmaydi. Bu borada hech bir ijodkor va hech bir kitob hazrat Navoiy va u kishining asarlari bilan tenglasha olmaydi. Chunki “...Inson qalbining quvonchu qayg‘usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg‘usi ham bizning ongu shuurimiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko‘p bahramand etsak, milliy ma’naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma’rifiy qurolga ega bo‘lamiz”².

Ma’lumki, milliy tilning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib berishda buyuk shoir asarlari tilini tadqiq etish, shoir qo‘llagan lug‘aviy birliklar va ular orqali o‘zbek tilining leksik zahira imkoniyatlarini aniqlash alohida ahamiyatga ega. O‘zbek adabiy tili taraqqiyotini belgilashda Navoiy she’riyati o‘zbek tili tadqiqotchilari uchun barcha davrlarda ham muhim manba bo‘lib kelgan. “...Endigi vazifa o‘zbek tilshunosligini tavsifiy bosqichdan tadqiqot bosqichiga ko‘tarish, o‘zbek tilining barcha sath birliklarini sistem-struktur o‘rganish

¹Мирзиёев Ш.М. Танкидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза, 2017 йил 14 январь. - Тошкент: Ўзбекистон, 2017. 47-б.

²Karimov Islom. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: «Ma’naviyat», 2008. 47-bet

kerak”¹. Bu vazifa navoiyshunoslik ilmda ham yangi tadqiq usullarini izlashga turtki beradi. Bunday tadqiq usulini o‘zbek tili tarixi materiallariga nisbatan qo‘llash esa til egalari uchun foydadan holi emas. Tilshunosligimizda hal qilinishi lozim bo‘lgan qator masalalar faqat xalq manfaati va mustaqil davlatning har jihatdan rivojlanishi uchun xizmat qilishga qaratilmog‘i zarur.

Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonlari tarkibida muhim o‘rin tutgan “Saddi Iskandariy” dostonining leksik-semantik xususiyatlari tilshunosligimizda tadqiq etilgan emas. Chunki shoirning ensiklopedik lug‘atida “Saddi Iskandariy” doston bilan bog‘liq 3ta tadqiqot ishi haqida ma’lumot berilgan bo‘lib, mazkur ishlar adabiyotshunos olimlar tomonidan bajarilgan². O‘zbek tilshunosligida dostonning lingvistik xususiyatlari doirasida leksik va semantik jihatlarini o‘rganish ilk bor tadqiqot ob’ekti sifatida tanlandi. Chunki ilm va olimlar ulug‘langan “Saddi Iskandariy” dostonining leksikasi alohida xususiyatlari bilan “Xamsa”ning boshqa dostonlaridan tubdan farq qiladi. Ushbu tadqiqot shoir ijodi va so‘z qo‘llash mahorati bilan bog‘liq ayrim masalalarga oydinlik kiritishi mumkin. Bu mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni va dostonida qo‘llangan lug‘aviy birliklar.

Tadqiqotning maqsadi. “Saddi Iskandariy” dostonidagi leksik birliklarning lug‘aviy-ma’naviy xususiyatlarini tadqiq etish.

Tadqiqotning vazifalari:

- leksemalar tizimida LSG haqidagi qarashlarni o‘rganish;
- Navoiy asarlari tilida leksik me’yor masalasini yoritish;
- “Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llanilgan leksik birliklarning semantik xususiyatlarini ochib berish;
- “Saddi Iskandariy” dostonida *kema*, *yer* va *tuhfa* leksemalarining semantik xususiyatlarini yoritish;
- dostonida *oltin* leksemasining semantik xususiyatini aniqlash;

¹ Нурмонов А. Танланган асарлар //Талаб, эhtiёж, имконият. III жилд. -Т.: “Академнашр”, 2012. 312-б.

² Алишер Навоий. Қомусий луғат.II жилд.-Тошкент: Шарқ, 2016.

- dostonida tabiat tasviriga oid eng muhim leksik birliklar(bahor fasli misolida)ni tahlil etish;
- “Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llangan hayvonot nomlarining paradigmatic munosabatlari, uslubiy xususiyatlarini o‘rganish, statistik jihatdan tadqiq etish;
- dostonida tibbiy tushunchalarni ifodalovchi asosiy leksik birliklarni aniqlash;
- dostonida qo‘llanilgan milliy-madaniy leksik birliklarning semantik xususiyatlarini yoritish

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- leksemalar tizimida LSG haqidagi qarashlar o‘rganildi;
- Navoiy asarlari tilida leksik me‘yor masalasi yoritib berildi;
- “Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llanilgan leksik birliklarning semantik xususiyatlari ochib berildi;
- “Saddi Iskandariy” dostonida *kema*, *yer* va *tuhfa* leksemalarining semantik xususiyatlari yoritildi;
- dostonida *oltin* leksemasining semantik xususiyati aniqlandi;
- dostonida tabiat tasviriga oid eng muhim leksik birliklar(bahor fasli misolida) tahlil etildi;
- “Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llangan hayvonot nomlarining paradigmatic munosabatlari, uslubiy xususiyatlari o‘rganildi, statistik jihatdan tadqiq etildi;
- dostonida tibbiy tushunchalarni ifodalovchi asosiy leksik birliklar aniqlandi;
- dostonida qo‘llanilgan milliy-madaniy leksik birliklarning semantik xususiyatlari yoritildi.

Ish mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharhi. O‘zbek tilshunosligida Alisher Navoiy asarlari tadqiqi doirasida olib borilgan izlanishlar samarasi sifatida qator tadqiqotlar maydonga keldi. Shoir asarlari tadqiq etilgan ishlarda Navoiy

she'riyati va nasrining fonetik, leksik, morfologik hamda sintaktik xususiyatlari atroflicha tadqiq etilgan bo'lib, akademik A.Rustamovning "Fonetiko-morfologicheskie osobennosti yazyka Alishera Navoi" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi, B.Bafoevning "Navoiy asarlari leksikasi", "Ko'hna so'zlar tarixi" nomli monografiya va risolalari, G'. Abdurahmonov va A.Rustamovning "Navoiy tilining grammatik xususiyatlari" nomli risolasi, S.Ashirboevning "Navoiy nasriy asarlaridagi sodda gaplarning tarkibiy va ma'no xususiyatlari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi; M.Qodirovning "Funksionirovanie padejnyx form v yazyke prozy Alishera Navoi", F.Hayitmetovning "Alisher Navoiy g'azallari qofiyasida mantiq urg'usining berilishi", N.Umarovning "Alisher Navoiy g'azallari maqtasida sabab va oqibat munosabatining ifodalanishi", Sh.Yoqubovning "Navoiy asarlari onomastikasi", I.Azimovning "Alisher Navoiyning nasriy asarlarida kesim markazli bosh bo'lakli gaplarning shakliy va mazmuniy xususiyatlari", Z.Isaqovning "Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asaridagi ijtimoiy-siyosiy leksika" mavzusidagi nomzodlik ishlari shular jumlasidandir.¹ 2017- yilda nashr etilgan, navoiyshunoslik borasida erishilgan yutuqlarni jamlagan "Alisher Navoiy. Qomusiy lug'ati" ning II jildidagi 3-ilovada keltirilgan doktorlik va nomzodlik ishlari ro'yxati jami 110 tani tashkil etadi. Ushbu ro'yxatda Navoiyning "Xamsa" dostoni yuzasidan tadqiqot olib borgan filolog olimlar 20 nafarni tashkil etadi. P.Shamsiev, S.Hasanov, B.Murtazoev, M.Narziqulova ("Sab'ai sayyor"), T.Ahmedov, X.Mamatqulova ("Layli va Majnun"), A.Karimov, S.Erkinov ("Farhod va SHirin"), F.Nabiyev ("Farhod va Shirin", "Layli va Majnun"), S.Xidirnazarov ("Hayrat-ul abror"), J.Rahimov,

¹ Рустамов А. Фонетико-морфологические особенности языка Алишера Навои: ДДА. -Ташкент: Фан, 1966; Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. -Тошкент: Ф.Ғулом, 1979; Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. -Тошкент: "ФАН", 1983; Бафоев Б. Кўҳна сўзлар тарихи. Тошкент: "ФАН", 1991; Қодиров М. Функционирование падежных форм в языке прозы Алишера Навои: НДА. -Ташкент, 1978; Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. -Т.: Фан, 1984; Аширбоев С. Алишер Навоийнинг насрий асарларидаги содда гапларнинг таркибий ва маъно хусусиятлари: ДДА. -Тошкент, 1990; Ҳайитметов Ф.А. Алишер Навоий ғазаллари қофиясида мантиқ ургусининг берилиши: НДА. -Тошкент, 1998; Умарова Н. Алишер Навоий ғазаллари мақасида сабаб ва оқибат муносабатининг ифодаланиши: НДА. -Фарғона, 2005; Ёқубов Ш. Навоий асарлари ономастикаси. НДА. -Тошкент, 1994; Азимов И. Алишер Навоийнинг насрий асарларида кесим марказли бош бўлакли гапларнинг шаклий ва мазмуний хусусиятлари: НДА. -Тошкент, 2001; Исақова З. Алишер Навоийнинг "Мажолис ун-нафоис" асаридаги ижтимоий- сиёсий лексика: НДА. -Тошкент, 2010.

A.Erkinov, N.G'afforov, D.Rahmonova, A.Hayitov, M.Muhiddinov, N.G'anixo'jaeva ("Xamsa"), M.Hamidova, I.Salimov, A.Erkinov ("Saddi Iskandariy")larning doktorlik va nomzodlik ishlaridan iborat.¹

"Saddi Iskandariy" dostoni asosida olib borilgan tadqiqotlar Aftondil Erkinovning "Alisher Navoiyning peyjaz yaratish mahorati ("Saddi Iskandariy" dostoni misolida)" mavzusidagi nomzodlik ishi(1990), Mavjuda Hamidovanning "Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonining ilmiy-tanqidiy matni" mavzusidagi doktorlik ishi (1994), Imom Salimovning "Alisher Navoiyning badiiy obraz yaratish mahorati" mavzusidagi nomzodlik ishi (1994)dangina iborat. Mazkur ilmiy manbalar ushbu doirada yaratilajak kelgusi tadqiqotlar uchun ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Bugunga qadar shoirning "Saddi Iskandariy" dostoni filologiya ilmida alohida tadqiqot obyekti sifatida tanlanmagan. Dostonning lug'aviy-ma'naviy xususiyatlari esa deyarli o'rganilmagan.

Ishning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Farg'ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrasining sistemaviy tadqiqotlari sirasiga kiradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari oliy va o'rta maxsus ta'limda uslubshunoslik fanlarini o'tishda, "Til tarixi", "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kursining morfologiya va leksikologiya bo'limlarini, shuningdek, "Badiiy matn tahlili" singari fanlarni o'qitishda ham amaliy jihatdan foydalanish mumkin.

Ish tuzilmasining tavsifi. Ish kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. BMIning umumiy hajmi 63 sahifani tashkil etadi va 14 107 so'zdan iborat.

¹ Бу ҳақда қаранг: Алишер Навоий. Қомусий луғат. II жилд. –Тошкент: Шарқ, 2016. 365-455-б.

I BOB. O'ZBEK TILIDA LUG'AVIY-MA'NOVIY GURUHLAR

I.1.Navoiy asarlari tilining tadqiqi

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek: "Hozirgi paytda hammamizning oldimizda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan masala, ya'ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo'lgan muhabbatini, ularning ma'naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi".¹ Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek: "...Inson qalbining quvonchu qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ongu shuurimiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma'rifiy qurolga ega bo'lamiz".² Buning uchun esa Navoiy qoldirgan boy adabiy merosni chuqur o'rganish va unda ifoda etilgan sarmazmun fikrlarni xalqqa yetkazish tilshunoslar oldiga ularni keng ko'lamda tadqiq etishdek muhim vazifani qo'yadi.

Alisher Navoiy - millatimiz ma'naviyatining shakllanishiga, ona tilimizning ravnaqiga kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan buyuk shaxsdir. Hukumatimiz tomonidan buyuk mutafakkir shaxsiyati, ijodiga bo'lgan e'tibor barcha ilm-fan ahlini, xususan, navoiyshunos olimlarni shoir asarlarini keng ko'lamda tadqiq etish va o'rganishga, ayniqsa, filologik yo'nalishda yangi tadqiqotlar yaratishga da'vat etib, ilhomlantirib kelmoqda. Navoiyning til borasidagi ulkan kashfiyoti shundaki, u har uch tilni mukammal bilganligi uchun ularning ichki imkoniyatlaridan to'liq foydalana

¹Мирзиёев Ш.М. Танкидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза, 2017 йил 14 январь. - Тошкент: Ўзбекистон, 2017. 47-б.

²Karimov Islom. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: «Ma'naviyat», 2008. 47-bet

oldi va har uch tilning jozibasini bir-biriga qo‘shib, ularning ta’sir kuchini uch barobar oshirganday bo‘ldi.

Alisher Navoiy “Muhokamatul-lug‘atayn” asarini umrining so‘nggi yillarida juda katta hayotiy va ijodiy tajribasini sarhisob qilayotgan paytlarida yozgan. Qatrada quyosh aks etgani kabi uning butun umri davomida jamlagan til boyliklari har uch tilda bir-biri bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Shubhasiz, bu uyg‘unlikda turkiy til qoidalari yetakchi o‘rinni egallaydi.

Navoiy o‘z ona tilini o‘n sakkiz ming olamdan ham ortiq deb ulug‘laydi. Uning xazinalari durlarga to‘la, uning gullari osmon yulduzlaridan ham ravshanroq. Uning ko‘pgina boyliklari ochilmagan qo‘riqlar kabi saqlanib turibdi. Faqat bu til xazinalarining nashtarday tishli ilonlari va ozor beruvchi tikonlari bor. Ana shunday xazinaga ega bo‘lish uchun esa ilonlar va tikonlarni yengib o‘tish kerak edi. Bunday qiyinchiliklardan o‘tolmagan tab’ ahli xiradmandlari turkiy til xazinalaridan bahra ololmadilar va bu tilni “yovvoyi”, “qo‘pol”, “she’r tili” emas, deb sarzanish qiluvchilar ham topildi. Alisher Navoiy esa turkiy tilda ijod qiluvchilarni “forsigo‘ylarning ta’n qilur sarzanishidin” qutqarishni o‘ziga maqsad qilib qo‘yadi va bu ulug‘ maqsadni amalga oshirganini aytadi².

Navoiy asarlarining til boyliklarini sinchiklab o‘rgangan tilshunos olim B.Bafojev shoir asarlari tilining leksik salmog‘i haqida muhim statistik ma’lumotlarni keltiradi. Alisher Navoiyning turkiy tildagi she’rlari 104 ming misradan ortiq bo‘lib, yana forsiy tilda 10 000 misra she’ri bor. Nasriy asarlari, maktublari — hammasining so‘z boyligini hisoblab chiqqan olim: “Alisher Navoiy asarlarini taxminan 1 million 378 mingdan ortiq so‘z tashkil qiladi”¹, deb yozadi.

Albatta, bu so‘zlarning katta bir qismi asardan asarga o‘tib, ko‘p marta takrorlanadi. Ammo “so‘zlik” deb ataladigan va takrorlari hisobga olinmaydigan so‘z boyliklari bor. Bu ma’lumotlarni o‘z kitobida keltirgan

¹ Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. –Т., 1983. 20-б; WWW.Ziyounet.uz / Navoiy.uz

B.Bafojev Alisher Navoiy asarlarida qoʻllanilgan soʻzlar soni 26000 dan ortiq ekanini aniqlagan¹.

Alisher Navoiy ijodi bu qadar ulkan til boyliklarini oʻzida jamlagani — jahon tillari tarixida kam uchraydigan hodisadir. Ummonday cheksiz bu koʻlam, avvalo, turkiy tillar va ularning turli shevalaridagi til boyliklarini Alisher Navoiy ijod jarayonlariga mahorat bilan olib kirib jamlagani tufayli paydo boʻlgan.

Alisher Navoiy arab-fors tili boyliklaridan foydalanganda, ularning turkiy tilga oʻzlashib, singib ketadiganlariga koʻproq murojaat qiladi. Shu bilan birga, Navoiy har uch tilning imkoniyatlaridan foydalanib, yangi maʼnoli soʻzlar — neologizmlar yaratadi. “Alisher Navoiy yaratgan yangi soʻzlar, yangi maʼnolar turkiy tillar doirasidan chiqib, fors-tojik tilining ham lugʻat fondini boyitdi”¹, deb yozadi B.Bafojev va bu fikrining isboti uchun Navoiy asarlarida **L** va **A** harflari bilan boshlanadigan yangi maʼnoli fors-tojik soʻzlarining 209 tasi “Farhangi zaboni tojik” lugʻatida qayd etilganini dalil qilib keltiradi. Neologizmlar guruhiga mansub “aqlkush, aybgoʻy, afsona pardozi, aflaksoʻz” kabi qoʻshma soʻzlarning koʻpchiligi Navoiy dostonlarida qoʻllangan. Chunki hajm jihatidan ham, gʻoya va mazmun jihatidan ham olamshumul miqyoslarga ega boʻlgan “Xamsa” dostonlari Navoiy ijodining eng yuksak kamolot bosqichiga koʻtarilganidan dalolat beradi. Bu kamolot bosqichida Navoiy ijodida oʻn yillar davomida jamlanib kelgan badiiy til boyliklariga xos miqdoriy oʻzgarishlar “Xamsa” dostonlarida va undan keyin yozilgan “Nasoyim ul-muhabbat” kabi nasriy asarlarda sifat oʻzgarishiga aylanadi.

Tilshunoslik fanining taraqqiyoti bugun har bir sohada yangilanish, jiddiy izlanishlarni talab etmoqda. Shu jihatdan badiiy matn, uning tarixiy formalari tadqiqiga yangicha yondashuv, uni mukammal bir sistema sifatida tadqiq etish, leksik sistema birliklarini semantik jihatdan tahlil etish, bu birliklarga tizimli yondashuv oʻzbek tilshunosligining dolzarb muammolari

¹ Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. —Т., 1983. 20-б.

sirasiga kiradi. Ayniqsa, tilning tarixiy taraqqiyotini o'rganishda bu kabi tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega.

O'zbek tilshunosligida Alisher Navoiy asarlari tadqiqi doirasida olib borilgan izlanishlar samarasi sifatida qator tadqiqotlar maydonga keldi. Shoir asarlari tadqiq etilgan ishlarda Navoiy she'riyati va nasrining fonetik, leksik, morfologik hamda sintaktik xususiyatlari atroflicha tadqiq etilgan bo'lib, akademik A.Rustamovning "Fonetiko-morfologicheskie osobennosti yazyka Alishera Navoi" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi, B.Bafoyevning "Navoiy asarlari leksikasi", "Ko'hna so'zlar tarixi" nomli monografiya va risolalari, G'. Abdurahmonov va A.Rustamovning "Navoiy tilining grammatik xususiyatlari" nomli risolasi, S.Ashirboevning "Navoiy nasriy asarlaridagi sodda gaplarning tarkibiy va ma'no xususiyatlari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi; M.Qodirovning "Funkcionirovanie padejnyx form v yazyke prozy Alishera Navoi", F.Hayitmetovning "Alisher Navoiy g'azallari qofiyasida mantiq urg'usining berilishi", N.Umarovanning "Alisher Navoiy g'azallari maqtasida sabab va oqibat munosabatining ifodalanishi", SH.YOqubovning "Navoiy asarlari onomastikasi", I.Azimovning "Alisher Navoiyning nasriy asarlarida kesim markazli bosh bo'lakli gaplarning shakliy va mazmuniy xususiyatlari", Z.Isaqovanning "Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asaridagi ijtimoiy-siyosiy leksika" mavzusidagi nomzodlik ishlari shular jumlasidandir.¹ 2017-yilda nashr etilgan, navoiyshunoslik borasida erishilgan yutuqlarni jamlagan "Alisher Navoiy. Ensiklopedik lug'ati"ning II jildidagi 3-ilovada keltirilgan doktorlik va nomzodlik ishlari ro'yxati jami 110 tani tashkil etadi. Ushbu

¹ Rustamov A. Фонетико-морфологические особенности языка Алишера Навои: ДДА. -Ташкент: Фан, 1966; Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. -Тошкент: F.Гулом, 1979; Бáfоев Б. Навоий асарлари лексикаси. -Тошкент: "ФАН", 1983; Бáfоев Б. Кўхна сўзлар тарихи. Тошкент: "ФАН", 1991; Қодиров М. Функционирование падежных форм в языке прозы Алишера Навои: НДА. -Ташкент, 1978; Абдурахмонов Г., Rustamov A. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. -Т.: Фан, 1984; Аширбоев С. Алишер Навоийнинг насрий асарларидаги содда гапларнинг таркибий ва маъно хусусиятлари: ДДА. -Тошкент, 1990; Хайитметов Ф.А. Алишер Навоий ғазаллари қофиясида мантиқ ургусининг берилиши: НДА. -Тошкент, 1998; Умарова Н. Алишер Навоий ғазаллари мақасида сабаб ва оқибат муносабатининг ифодаланиши: НДА. -Фарғона, 2005; Ёқубов Ш. Навоий асарлари ономастикаси. НДА. -Тошкент, 1994; Азимов И. Алишер Навоийнинг насрий асарларида кесим марказли баш бўлакли гапларнинг шаклий ва мазмуний хусусиятлари: НДА. -Тошкент, 2001; Исакова З. Алишер Навоийнинг "Мажолис ун-наfois" асаридаги ижтимоий- сиёсий лексика: НДА. -Тошкент, 2010.

ro'yxatda Navoiyning "Xamsa" dostoni yuzasidan tadqiqot olib borgan filolog olimlar 20 nafarni tashkil etadi. P.Shamsiyev, S.Hasanov, B.Murtazoev, M.Narziqulova ("Sab'ai sayyor"), T.Ahmedov, X.Mamatqulova ("Layli va Majnun"), A.Karimov, S.Erkinov ("Farhod va SHirin"), F.Nabiyev ("Farhod va Shirin", "Layli va Majnun"), S.Xidrnazarov ("Hayrat-ul abror"), J.Rahimov, A.Erkinov, N.G'afforov, D.Rahmonova, A.Hayitov, M.Muhiddinov, N.G'anixo'jaeva ("Xamsa"), M.Hamidova, I.Salimov, A.Erkinov ("Saddi Iskandariy")larning doktorlik va nomzodlik ishlaridan iborat.¹

"Saddi Iskandariy" dostoni asosida olib borilgan tadqiqotlar Aftondil Erkinovning "Alisher Navoiyning peyjaz yaratish mahorati ("Saddi Iskandariy" dostoni misolida)" mavzusidagi nomzodlik ishi (1990), Mavjuda Hamidovaning "Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonining ilmiy-tanqidiy matni" mavzusidagi doktorlik ishi (1994), Imom Salimovning "Alisher Navoiyning badiiy obraz yaratish mahorati" mavzusidagi nomzodlik ishi (1994)dangina iborat. Mazkur ilmiy manbalar ushbu doirada yaratilajak kelgusi tadqiqotlar uchun ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Bugunga qadar shoirning "Saddi Iskandariy" dostoni filologiya ilmida alohida tadqiqot obyekti sifatida tanlanmagan. "Xamsa" dostonlari tarkibida muhim o'rin tutgan "Saddi Iskandariy" dostonining leksik-semantik xususiyatlari tilshunosligimizda deyarli tadqiq etilmagan. Mazkur dostonning leksikasi alohida jihatlari bilan boshqa dostonlardan farq qiladi. Ushbu tadqiqot shoir ijodi, so'z qo'llash mahorati bilan bog'liq ayrim jihatlarga oydinlik kiritishi mumkin. Bu esa mavzuning dolzarbligini asoslaydi.

I.2. Navoiy asarlari tilida leksik me'yorlar

O'zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy ilmiy asarlarni arab tilida va badiiy asarlarni fors-tojik tilida yozish an'anaga aylangan bir

¹ Бу ҳақда қаранг: Алишер Навоий. Энциклопедик луғат. II жилд. –Тошкент: Шарқ, 2016. 365-455-б.

davrda o‘zbek tilining ham badiiy, ham ilmiy asarlar yaratish uchun boy imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Fors-tojik tilida qaysi tur, qaysi janr va uslubda asarlar yaratilgan bo‘lsa, Alisher Navoiy shularning hammasida o‘zbek tilida original asarlar yaratdi. U fors-tojik so‘z san’atkorlari bilan ijodiy musobaqalashdi. Bu musobaqada katta muvaffaqiyatlarga erishib, o‘zbek tilining leksik va grammatik boyliklarini namoyish etdi.

Alisher Navoiy o‘zining “Mezonul-avzon” asarida shunday yozadi “... Ajam shuarosi va fors fusahosi har qaysy uslubdakim, so‘z arusyg‘a jilva va namoyish berib erdilar, turk tili bila qalam surdum va har nechuk qoidakim, ma’ni arkabig‘a ziynat va oroyish ko‘rguzub erdilar, chig‘atoy lafzi bilan raqam urdum”. Demak, Alisher Navoiy o‘z asarlarida o‘zbek tilining leksik boyliklaridan, sinonimlari va omonimlaridan, xalq maqollari va matallaridan, frazeologik, idiomatik birikmalaridan, jumla tuzilishidan keng foydalangan. Natijada leksik va grammatik me’yorlarni ma’lum qolipga, tartibga solishga intilgan.

O‘z asarlarida so‘z boyligidan ijodiy foydalangan Alisher Navoiy o‘zbek tili leksik jihatdan fors-tojik tilidan boy ekanligini ham ta’kidlaydi. U o‘zbek tilidagi boy sinonimlardan o‘z asarlarida unumli foydalandi. O‘zbek tilida turli ma’no nozikliklarini ifodalovchi sinonimik juftlarga ega bo‘lgan fe’llardan yuztasini «Muhokamatul-lug‘atayn»da eslab o‘tadi: «Bu yuz lafzdurki, g‘arib maqosid adosida ta’yin qilibdurlarki, hech qays uchun sart tilida lafz yo‘saydurlar».¹

Alisher Navoiy o‘zi keltirgan 100 ta masdar fe’lning har biri o‘zbek tilida o‘z sinonimlariga ega ekanligini ta’kidlaydi.

Masalan, biror-bir suyuqlikni ichish harakatini ko‘rsatuvchi *ichmoq* fe’li bor. Navoiy bu fe’lning *sipqarmoq*, *tamshimoq* kabi sinonimlaridan ham foydalangan:

Soqiyo, tut bodakim, bir lahza o‘zumdin boray,

Shart bukim, har necha tutsang labolab sipqaray.

Soqiy chu ichib, menga tutur qo'sh,

Tamshiy-tamshiy ani qilay no'sh.

Alisher Navoiy asarlarida «yig'lamoq» so'zining *yig'lamsinmoq, bo'hsamoq, ingramoq, singramoq, siqtamoq, o'kirmoq, inichqirmoq, hay-hay yig'lamoq* kabi sinonimlarini samarali qo'llagan.

Ushbu sinonimlarning she'riy ustunligi, uslubiy bo'yoqdorligi va she'riyatdagi roli aniq ko'rinib turibdi.

Alisher Navoiy o'zbek tilining omonimlariga ham ijobiy qaraydi. U omonimlarning polisemantik va poetik xususiyatlarini ochar ekan, ularni ona tilining boyliklaridan biri deb hisoblaydi. Navoiy o'zbek tili omonimlarga boyligini va ular orqali shoirlar go'zal tuyuqlar yaratganliklarini ta'kidlaydi.

Shoirning o'zi ham omonimlardan foydalanib, yaxshi so'z o'yinlari yasagan: *tush* (yarim kun), *yan* (yonmoq, yonboshi qayt); *yaq* (yoqmoq, tomon, yog') kabi.

Navoiy bu omonimlardan foydalanish bilan birga, so'zning vazifasiga ko'ra semantik taraqqiyotini ham ko'rsatdi. Shoir o'z asarlarida faqat omonim, sinonim so'zlarni emas, balki fors tilida bo'lmagan va turkiy tilda mavjud bo'lib, iste'mol qilinmagan so'zlardan foydalandi va ularni adabiy me'yor sifatida o'zlashtirdi: Masalan, *cho'qur, qabaq* (qovoq), *meng, ildirim* (yashin), *chaqin* (yashin) kabi.

Navoiy leksik me'yorlarni belgilashda hayotning turli sohalariga tegishli bir qancha turkiy so'zlarni o'z asarlariga singdirdi. Ular quyidagilardan iborat:

oziq-ovqat nomlari: *qaymoq, qatlama, bulamyq, qurut, ulaba, mantu, quymoq, o'rkamach, qymiz, suzma, bo'za, tatmach, umach, qumaq;*

chorvachilikka oid so'zlar: *tubuchaq, arg'umaq, yaka, yabu, tabu; tay, g'unan, dunan, tulan, chirg'a, lang'a, jabildir, xana, toqum, chilvir;*

kiyim-bosh nomlari: *dastar, qalpaq, navro'zi, to'ppa, shirdaq, jalak, dakla, qur, terlik;*

ov hayvonlari nomlari: *kiyik, to'ng'uz, xuna, suyqun, bug'u, maral, ohu, gavazi, xuk, guraz*

Navoiy o'zbek tilining o'ziga xos leksik xususiyatlarini ko'rsatar ekan, o'z navbatida fors tiliniig leksik boyliklaridan ham foydalandi.

Alisher Navoiy o'zbek tilining leksik me'yorlarini belgilashda arab, fors-tojik tili so'zlaridan ham foydalandi. Ayrim tushunchalarni ifodalashda boshqa tildan so'z olish zarur va shart deb bildi. Chunki arabcha, forsha-tojikcha so'zlarni ko'proq ishlatishni o'sha davr adabiy janr va uslubi ham talab qilar edi.

Navoiy o'zining nazmiy asarlarida o'zbek tilining ham fors-tojik tili kabi dabdabali jaranglashini istadi. Shuning uchun asarlar tili va uslubiga dabdabali ruh berishga harakat qildi. Navoiy o'zi ishlatgan til materiallarini she'riy asarlar g'oyasini ochishga xizmat qildirdi. U o'z asarlarida dabdabali uslubga murojaat qilar ekan, u uslubga to'liq ergashib ish tutmadi. O'zidan oldingi arab kitobiy til an'anasiga ergashmadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Alisher Navoiy turk tili so'z boyligining sort (fors) tilidan qolishmasligini, hatto ba'zi o'rinlarda ustun turishini isbotlamoq uchun juda katta izlanish ishlarini olib borgan. Hali o'zbek tilining izohli, dialektal, tematik lug'atlari yaratilmagan bir davrda o'zbek tili leksik imkoniyatlarini ko'z-ko'z qiluvchi leksik birliklarni aniqlash uchun qanchalar mehnat sarflaganini, o'zbek tili ummonida mohir g'avvos bo'lib qanday qiyinchilik bilan durlar saralaganini tasavvur qilish qiyin emas. Bu Alisher Navoiyning ona xalqiga, uning tiliga cheksiz mehr-muhabbatidan yana bir nishonadir.

I.3.Leksemalarning leksik ma'no asosida guruhlanishi

Professor E.Begmatov leksikada sistemalilik xususida fikr yuritib, tilshunoslikda tilning lug'aviy boyligini ham muayyan sistema sifatida tasavvur qilish va ilmiy tasniflashlar asosida quyidagilarni belgilaydi:

soʻzlarni soʻz turkumlariga ajratish usuli, yaʼni soʻz turkumlari sistemasi; soʻzlarni yasash modellariga koʻra tasnif qilish usuli, yaʼni soʻz yasash usullari; soʻzlarni funksional-stilistik guruhlariga ajratish usuli, yaʼni soʻzlarning stilistik-differensial guruhlari; soʻzlarni maʼlum mavzu guruhlariga ajratish usuli, yaʼni soʻzlarning mavzu guruhlari va boshqalar¹.

Ayrim tilshunoslar soʻzlar orasidagi sistemali aloqani yuzaga keltiruvchi kuchlarni koʻrsatish orqali leksik sistemalilikni koʻrsatishga harakat qilganlar: 1) soʻz mustaqil leksik maʼnosining borliqqa va bu bilan aloqador boʻlgan tushunchaga munosabat kuchi; 2) soʻzlarning yasala olish imkoniyatlari, bu maʼnoda soʻzlarning oʻzaro munosabati va ularning maʼlum LSGga (masalan, biror bir soʻz turkumiga) birlasha olish kuchi; 3) soʻzlarning oʻzaro semantik munosabatlari kuchi: maʼnoda yaqinlik (sinonimlar), maʼnoda moslik (dubletlar), teskari maʼnoga egalik (antonimlar), shaklan moslik – yaqinlik, mazmunan uzoqlik (omonimlar); 4) soʻzlarning nutqda oʻzaro bogʻlana olish va yonma-yon qoʻllana olish kuchi; 5) soʻzlarning uslubiy ehtiyoj va talablarga koʻra maʼlum guruhlariga ajrala olish kuchi².

A.Hojiyev, H.Neʼmatov, R.Rasulov³, Sh.Rahmatullayevlar⁴ning “leksema” termini haqidagi tushunchalarini chuqur tahlil qilib, mazkur tilshunoslarning “leksema lisoniy birlik, soʻz nutqiy birlik” kabi eʼtiroflariga oʻz munosabatini shunday bayon qiladi: “Xullas, leksema termini “tilning lugʻat tarkibiga mansub soʻz”, “lugʻaviy maʼnoli soʻz” degan maʼnoda, soʻzning bir vazifasidagina qoʻllanadi. Qolgan hollarda “soʻz” oʻrnida “leksema” qoʻllanmaydi, masalan: soʻz yasalishi, soʻz shakli, soʻz urgʻusi, soʻz birikmasi, soʻzlarning paydo boʻlishi birikmalari tarkibidagi soʻz oʻrnida leksema qoʻllanmaydi”⁵. Professor Sh.Rahmatullaev “Hozirgi adabiy oʻzbek

¹ Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. -Тошкент: Фан, 1985.- Б. 116.

² Қаранг: Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. -Тошкент: ФАН, 1985.24-б.

³ Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. -Тошкент : Ўқитувчи, 1995.

⁴ Раҳматуллаев Ш. Тил қурилишининг асосий бирликлари. -Т.: Университет, 2002.

⁵ Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясаилишининг назарий масалалари. -Тошкент: ФАН, 2010. -77-б

tili” nomli monografiyasida leksemalarni tizim sifatida o‘rganishda LSG muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi¹.

Leksemalarning leksik ma’no asosida guruhlanishiga leksik-semantik guruh deyiladi. Eng yirik LSG sifatida leksemalarning turkumlarga ajratilishi ko‘rsatiladi: ot leksemalar guruhi, fe’l leksemalar guruhi kabi. Bunday guruhlarga leksemalar leksik ma’nosi tarkibidagi bosh ideografik sema asosida birlashtiriladi. Masalan, “predmet” semasi ot leksemalarni, “predmetning harakat-holati” semasi fe’l leksemalarni ajratishga asos bo‘ladi. Har bir turkum LSGi o‘z navbatida bir qancha guruhlarga, agarda bunday guruh hajman katta bo‘lsa, o‘z navbatida yanada kichikroq guruhlarga ajratiladi.

Leksik-semantik guruhdan farqli ravishda semantik maydonda bir necha turkum leksemalari bir arxisema asosida qamrab olinadi. Masalan, “nutq faoliyati” semantik maydoniga “nutq” arxisemasi asosida ot leksemalar ham, fe’l leksemalar ham birlashtiriladi.

Sh.Iskandarova mazmuniy maydon doirasiga “bir so‘z turkumiga xos bo‘lgan so‘zlarning semantik guruhlarini ham, turli so‘z turkumlarining bir-biri bilan mazmuniy munosabatda bo‘lgan so‘zlar guruhlarini ham, leksik-grammatik (funktional-semantik) maydonlarni ham, transformatsion munosabatlarni bilan bog‘langan sintaktik konstruksiyalarning paradigmalarini ham, mazmuniy-sintaktik sintagmalarning ma’lum turlarini ham”² kiritgan bo‘lishiga qaramay, so‘zlarning mazmuniy sinflari va mazmuniy maydonlari o‘zaro farqlanishini ham eslatib o‘tadi.

LSGga ajratish asosan ot, sifat, fe’l, ravish turkumlariga xos. Har bir turkum leksemalari semantik guruhlarga turlicha ajratiladi. Leksemalarni semantik jihatdan guruhlash va ichki tasniflash semalar asosida amalga oshiriladi. O‘zbek tili lug‘at boyligini shunday usul bilan o‘rganish bugungi kunda tobora avj olib bormoqda.

¹ Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. -Т: “Мумтоз сўз”, 2010.

²Искандарова Ш.М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайdonи): Филол.фанл.докт....дисс.автореф. -Тошкент, 1999.

Obyektiv olamning sistemadan iborat ekanligi, uning ifodalovchisi bo'lgan til ham sistema ekanligi, tilshunoslik fani sistemani, ya'ni til sistemalarini o'rganishi e'tirof etilgan fakt. Bu, ayniqsa, tilning lug'at tarkibida, leksikasida aniq ifodasini topadi. Demak, asosiy maqsad ob'ektiv olamni tashkil etuvchi guruhlar va ularni tilda aks ettiruvchi hodisalarning – sistemalarning mohiyatini belgilashdir. “Til sistemasi”, “leksik sistema”, “leksik paradigma”, “leksik-semantik guruh”, “semantik maydon” kabi tushunchalar ob'ektiv olam sistemasiga xos guruhlanishlarni aks ettiruvchi tushunchalardir. Demak, o'zbek tili leksik sistemalarini tadqiq etishda ana shu tushunchalarning mohiyatini to'g'ri belgilash va aniq yoritish asosiy maqsad hisoblanadi. O'zbek tilida leksik-semantik guruh deb qaralayotgan hodisalarning bir turini leksik paradigma hisoblash maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbek tilshunosligida “leksik-semantik guruh”, “leksik paradigma” bir xil ma'noda qo'llanib kelinayotgani ma'lum. Biroq tilshunos olim A.Hojievning fikricha, “leksik –semantik guruh” termini “leksik paradigma” terminiga nisbatan keng tushunchani bildiradi, ya'ni bu termin xususiy ma'noli leksemalarning umumiy ma'no asosida birlashuvchi guruhini ifodalash uchun, shuningdek sinonimik va antonimik qatorlarga nisbatan ham qo'llanib kelinyapti. Bu esa har ikki terminning mohiyatini aniq va to'g'ri qayd etishni talab qiladi¹. Buning uchun “leksik –semantik guruh” deb yuritilishi mumkin bo'lgan guruhlarining mohiyatan bir-biridan farqli bo'lgan turlarini aniq belgilash va alohida hodisa sifatida o'rganish lozim. “Leksik-semantik guruh” deb ham yuritish mumkin bo'lgan guruhlardan bir turi – bir umumiy ma'nosi (semasi) asosida birlashuvchi leksemalardan tuzilgan LSGdir. Masalan, *bug'doy*, *qorabug'doy(marjumak)*, *arpa*, *suli*, *sholi*, *loviya* leksemalarining har biri don ekini va uning donini bildiradi – bu ularning umumiy belgisi, xuddi shu belgisi asosida bir leksik-semantik guruhni tashkil etadi. Xuddi shu xususiyati bilan bunday guruhlar sinonimlar qatoridan, antonim juftliklardan

¹ Хожиев А. Ўзбек тили морфологияси., морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. –Тошкент: ФАН, 2010, 102-б.

va boshqa tipdagi LSGdan tubdan farqlanadi. A.Hojiyevning ta'kidlashicha, "leksik paradigma" terminini xuddi shu tipdagi LSGga nisbatangina qo'llash o'rinli bo'ladi¹.

Bunday paradigmalarda paradigma a'zolari muayyan guruhga mansub bo'lgan narsalarni nomlaydi. A'zolar o'rtasida zidlanish, zidlik belgisi bo'lmaganligi bois bunday paradigmatic munosabat teng qiymatli munosabatga asoslanadi.

I.4.Ot leksemalarning semantik guruhlari

Ot-leksemalar leksik ma'nosining tabiatiga qarab turli-tuman LSGga ajratiladi: masalan, dastlab kishi otlari va narsa otlariga ajratilib, kishi otlari o'z navbatida qarindosh-urug'chilik nomlari, amal-mansab nomlari kabi guruhlarga birlashtiriladi. Narsa otlarida bunday guruhlar ko'pchilikni tashkil etadi: tana a'zolarining nomlari, kiyim-kechak nomlari, o'simlik nomlari va hokazo.

Ayrim leksik semantik guruhlar hajman keng bo'lib, o'z navbatida yana kichikroq guruhlarga ajratiladi; masalan, hayvon nomlarini uy-hayvonlarining nomlari, yovvoyi hayvonlarning nomlari kabi guruhlarga, bular esa o'z navbatida yana ham kichikroq guruhlarga, masalan, o'txo'rlar va go'shtxo'rlarga ajratiladi.

O'zbek tili bo'yicha ot leksemalar doirasida qanday semantik guruhlar mavjudligi hali to'liq aniqlanmagan, faqat qavm-qarindoshlik nomlari, tana a'zolari nomlari, hayvon nomlari kabi bir necha semantik guruhlar o'rganilgan, xolos.

Nomlovchi semalar ob'ektiv borliqdagi narsa-hodisa, belgi, harakat kabilarni nomlaydi. Nomlovchi semalardan tarkib topgan semema ham voqelik bilan bevosita bog'lanadi, predmet, belgi, harakat kabilarni nomlaydi. Shu bois bunday ma'no "nomlovchi ma'no" deb ham yuritiladi. Nomlovchi ma'no leksemalarning ma'lum guruhida ularning sememasidagi umumiy (birlashtiruvchi) va farqlovchi

¹ Хожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз яслишининг назарий масалалари. -Тошкент: ФАН, 2010. 103-б.

(differensial) semalardan tarkib topishi mumkin. Ob'ektiv olam sistemadan iboratligi, shu olamning ifodachisi bo'lgan til ham sistemadan iborat ekanligi, ob'ektiv olam jonsiz narsalar, jonivorlar va insoniyat olamidan iboratligi hammaga ma'lum. Leksik sistemalarning shakllanishini ob'ektiv olamning har bir bo'limiga (narsa, jonivor, insoniyat olami) mansub voqelikni ifodalovchi leksemalarni guruhlab o'rganish orqali belgilash mumkin. Natijada, leksik sistemalarning ichki turlarini to'g'ri belgilash imkoni tug'iladi. Buni esa o'zbek tili lug'at sostavini tashkil etuvchi, ob'ektiv olamga mansub voqeliklarni ifodalovchi ot leksemalarning paradigmatic guruhlarini aniqlash orqali ko'rsatib berish mumkin. A.Hojiyev ot-leksemalarni uch guruh asosida tasniflaydi¹.

Bulardan dastlabkisi sifatida narsani nomlovchi leksemalardan tuzilgan guruhlarni keltirish mumkin. Moddiy borliqdagi jonsiz narsalarni bildiradigan leksemalar muayyan narsani nomlaydi. Shu bois bunday leksemalarga xos ma'no "nomlovchi sema", nomlovchi ma'noning (sememaning)tarkibiy qismlari – semalari "nomlovchi ma'no" deb yuritiladi. Ma'lumki, har qanday sistema obyektiv borliqda mavjud bo'lgan hodisani (sistemani) aks ettiradi. Bu hodisa, jumladan, jonsiz narsalarni bildiruvchi leksemalardan tuzilgan paradigmalarda ham kuzatiladi. Masalan, birgina o'simliklar dunyosining o'zi o'zaro aloqada bo'lgan bir qancha guruhlardan (sistemalardan) tashkil topgan. Ularning har biri muayyan leksik paradigmalarda o'z ifodasini topadi. Narsani nomlovchi leksemalardan tuzilgan paradigmalarda paradigma a'zolarining har biri muayyan narsani nomlaydi. Masalan, chinor, sada, archa, terak, tol, bodom leksemalaridan tuzilgan paradigmani keltirish mumkin. Bu leksemalarning har biri daraxtning muayyan turini nomlaydi. Ayni paytda, bu leksemalarning sememalari tarkibida daraxtga xos bo'lgan umumiy belgini qayd etuvchi sema ham bor. Masalan, keltirilgan leksemalar bildirgan har bir narsada (chinor va sada kabilarda) `ildiz`, `tana`, `shoh`, `barg` va hokazolar bor. Lekin bularning har biri bir-biridan farqli narsalar

¹ Хожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз яслишининг назарий масалалари. -Т.: ФАН, 2010. 103-6.

bo‘lishi bois ularni nomlovchi semalar ham bir-biridan farqlanadi va ularni umumiy sema hisoblash mumkin emas.

Bu tipdagi paradigmalarning tuzilishida e’tiborga loyiq hodisalardan biri shuki, paradigmada tarkibida birlashtiruvchi semani ifodalovchi leksema qatnashmaydi. Masalan, tarvuz, qovun, handalak leksik paradigmasidagi har bir leksema poliz ekini va uning mahsulini bildiradi. Lekin paradigmada poliz ekini birikmasi qatnashmaydi. *Bosvoldi, qizilurug‘, cho‘giri, ko‘kcha, amiri* leksik paradigmasida birlashtiruvchi belgi qovun leksemasiga xos, lekin paradigmada bu so‘z qatnashmaydi. Bunday paradigmalarda birlashtiruvchi sema paradigma a‘zosi bo‘lmagan leksema orqali ifodalanadi. Masalan, *charos, husayni, chillaki, doroyi, shivilg‘oni* leksik paradigmasiga xos birlashtiruvchi belgi (sema)shu paradigmada qatnashmagan uzum leksemasi bilan, *bosvoldi, qizilurug‘* paradigmasida qovun leksemasi bilan qayd etiladi. Bunday paradigmalarda birlashtiruvchi semani qayd etuvchi leksemaning bo‘lmaslik sababi shuki, umumiylik (invariant) bevosita kuzatishda berilmaydi. Lekin paradigma a‘zolarining har birida paradigmaga xos umumiy belgi mavjud bo‘ladi. Masalan, *charos, chillaki, husayni* leksemalarining har birida `uzum` belgisi sezilib turadi.

Ko‘rinib turibdiki, bunday paradigmalarda paradigma a‘zolari muayyan guruhga mansub bo‘lgan narsalarni nomlaydi. A‘zolar o‘rtasida zidlanish, zidlik belgisi bo‘lmaydi. Xuddi shu xususiyatdan kelib chiqilsa, bu tipdagi paradigma a‘zolariga xos o‘zaro munosabatni – paradigmatic munosabatni “teng qiymatli munosabat” deb yuritish mumkin.

Bu tipdagi paradigmaga xos asosiy xususiyatlar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: 1) paradigma ikkidan ortiq leksemalardan tuziladi; 2) paradigma a‘zolari paradigmaga mansub bo‘lgan narsalarni nomlaydi, shu bois ularga xos semalar nomlovchi semalar bo‘ladi, ya’ni bir xil qiymatga ega bo‘lgan semalar hisoblanadi; 3) paradigma tarkibida birlashtiruvchi semani ifodalovchi so‘z qatnashmaydi, bu sema alohida leksema bilan ifodalanadi.¹

¹ Хожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз яналишининг назарий масалалари. -Т.: ФАН, 2010. 105-б.

Obyektiv olamning jonivorlar olamini ifodalovchi leksemalar jonivorlar olamini nomlovchi leksemalardan tuzilgan paradigmalarni tashkil qiladi. Jonivorlar olami ham nihoyatda murakkab tuzilishli bo'lib, ularga xos guruhlar turli-tumandir. Ularni ifodalovchi leksik paradigmalar ham nihoyatda ko'p va turli-tuman. Shunday bo'lsa-da, jonivorlar olami ham eng umumiy belgilari asosida yirik-yirik guruhlarga bo'linadi. Umumiy belgini bildiradigan leksemalar asosida esa shunday katta guruhlarini qayd etuvchi leksik paradigmalar hosil qilinadi. Natijada, jonivorlar olamidagi guruhlanishni aks ettiruvchi leksik sistema shakllanadi. Paradigma tarkibida birlashtiruvchi leksema qatnashmagan bo'lishiga qaramay, paradigma a'zolarining har birida ular uchun umumiy bo'lgan belgi `hayvon` belgisi sezilib turadi, xuddi shu belgi asosida leksemalar bir guruhga birlashadi. Shuning uchun paradigma a'zolaridan har birining izohida hayvon leksemasi qatnashadi. Masalan, *sher*, *yo'lbars*, *qoplon* leksemalari bildiradigan jonivorlar yovvoyiligi, mushuksimonlar oilasiga mansubligi, yirtqichligi bilan hayvonot dunyosining kichik bir guruhini tashkil etadi. Mazkur leksemalar ana shu belgilarni qayd etuvchi semalarga ega. Bu hayvonlar jinsi, yoshi, rangi va boshqa farqli belgilariga ega. Lekin bu belgilar ularning turini belgilamaydi. Keltirilgan jonivorlarning erkak va urg'ochisi bor, lekin o'zbek tilida ularni nomlaydigan alohida so'z yo'q va shu bois yo'q so'zlar bilan tuziladigan paradigma ham yo'q.

Jonivorlarni bildiruvchi leksemalardan tuzilgan paradigmalarning bir turi umumiy belgilarga ega bo'lgan leksemalardan tuziladi. Ikkinchi turi esa umumiy belgini bildiruvchi va farqlovchi beligiga ega bo'lgan leksemalardan tuziladi. Bunda farqli belgi jinsga ko'ra bo'lsa, paradigma uch leksemadan, yoshga ko'ra bo'lsa, uch va undan ortiq leksemadan tuziladi.

Insoniyat olamini nomlovchi leksemalardan tuzilgan guruhlar dastlabki ikki guruhga zidlanadi. Insoniyat olamining tuzilishi yanada murakkab va bu holat tilning leksik sistemalarida o'z aksini topgan. Insoniyat olamiga oid eng asosiy tushuncha `shaxs` tushunchasidir. Bu tushunchaga qomuslarda shunday ta'rif

beriladi: “Shaxs – alohida individ, mohiyatan yaxlit ijtimoiy-ahloqiy olam. U o‘zida inson mohiyatini, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etadi”¹.

Shaxs nomlari guruhini boshqa guruhlardan ajratishda “shaxs” belgisi farqlovchi belgi sanaladi. “Mashg‘ulot” belgisiga ko‘ra kasb bildiruvchi, “yosh” belgisiga ko‘ra yosh bildiruvchi guruhlarga va boshqalarga bo‘linadi

Shaxs nomlari ham muayyan tuzilishga ega bo‘lgan kichik bir sistemadir. Har birining semalari tuzilishini tahlil qilish, birlashtiruvchi va farqlovchi semalarini aniqlash, birlashtiruvchi semalar asosida ularni ma’lum guruhlarga birlashtirish va ayni paytda, farqlovchi semalar asosida bir leksemani ikkinchisidan farqlash o‘zbek tilshunosligida monografik planda maxsus tadqiq etilgan.

Shaxs maydoni birliklarining ichki tasnifi natijasida kishiga xos bo‘lgan jismoniy va fiziologik xususiyatlar, emotsional-hissiy holatlar, fikrlash va dunyoqarash xarakteri, fikrlash usullari, did-farosat, odat, bilim, xulq-atvor, vazifa, mashg‘ulot, turlicha aloqalar, vaziyat bilan bog‘liq xususiyat, borliqqa munosabat va shu kabi qator belgilar atroflicha namoyon bo‘ladi.²

Yuqorida qayd etilgan semantik guruhlar o‘z tarkibiga ko‘ra anemonimlarni birlashtirmaydi. Chunki anemonimlar `narsa` emas, `hodisa` semasiga ega. Bu esa yuqorida berilgan paradigmatic qatorlar ot leksemalarni semantik jihatdan muayyan guruhlarga birlashtirish imkonini bermaydi. Agar mazkur tasnifni anemonimlar hisobiga kengaytirsak, `predmetlik` tushunchasini qamrab oluvchi leksik birliklar semantik jihatdan to‘liqroq ifoda etilgan bo‘lar edi. Mazkur tasnif turdosh otlarning semantik guruhlarini aniqlash imkoniyatini bersa–da, turdosh otlar bilan oppozitsiyaga kirishuvchi atoqli otlarning lug‘aviy–ma’noviy guruhlarini aniqlash imkonini bermaydi.

Leksemalarning leksik ma’no asosida guruhlanishiga leksik semantik guruh (LSG) deyiladi. Eng yirik LSG sifatida leksemalarning turkumlarga ajratilishi ko‘rsatiladi: ot leksemalar LSGi, fe’l leksemalar LSGi kabi. Bunday LSGlarga

¹ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Тошкент, 2005. 10-ж., 15-б.

² Iskandarova Sh.M. O‘zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o‘rganish (shaxs mikromaydoni): HDA. - Toshkent, 1999.

leksemalar leksik ma'nosi tarkibidagi bosh ideografik sema (eng keng ko'lamli sema) asosida birlashtiriladi: masalan, "predmet" semasi asosida ot leksemalar LSGi, "predmetning harakat-holati" semasi asosida fe'l leksemalar LSGi ajratiladi.

Leksemalarni tizim sifatida o'rganish nuqtayi nazaridan LSGlar muhim ahamiyatga ega. LSGlarga ajratish asosan ot, sifat, fe'l, ravish turkumlariga xos. Har bir turkum leksemalari LSGlarga turlicha ajratiladi. Leksemalarni LSGlarga ajratish va ichki tasniflash semalar (ma'no uzvlari) asosida amalga oshiriladi. Leksemalarni LSGlarga birlashtirishni va ajratishni semik tahlil (ma'no uzvlari asosidagi tahlil) usuli bilan amalga oshirish orqali tilning lug'at boyligini tizim siftida chuqur anglash va tavsiflashga erishiladi. O'zbek tili lug'at boyligini shunday usul bilan o'rganish bugungi kunda tobora avj olib bormoqda.

Ot leksemalar leksik ma'nosining tabiatiga qarab turli-tuman LSGlarga ajratiladi: masalan, dastlab kishi otlari va narsa otlariga ajratilib, kishi otlari o'z navbatida qarindosh-urug'chilik nomlari, amal-mansab nomlari kabi LSGlarga birlashtiriladi. Juda ko'p LSGlar narsa otlarida mavjud: tana a'zolarining nomlari, kiyim- kechak nomlari, o'simlik nomlari va hokazo.

Ayrim LSGlar hajman keng bo'lib, o'z navbatida yana kichikroq LSGlarga ajratiladi; masalan, hayvon nomlari LSGi uy-hayvonlarining nomlari, yovvoyi havonlarning nomlari LSGlariga, bular o'z navbatida yana ham kichikroq LSGlarga ajratiladi. Masalan, dostonda qo'llangan ***babr, sher, pilu kark , ot, xachir, teva, ohu, go'r*** singari hayvon nomlarini bir necha jihatdan ma'naviy guruhlariga bo'lish mumkin.

Navoiy dostonga ya'juj tushunchasini olib kirar ekan, bu leksema na hayvonot olami paradigmasidan, na shaxs paradigmasidan o'rin oladi. *Ya'juj* afsonaviy tushuncha sifatida "shaxs emaslik", "hayvon emaslik" kabi belgilarni namoyon qiladi.

Ne zulmat– jahannam, ne vodi– saqar

Ki, ya'juj xaylig'a bo'ldi maqar.

Ne ya'juj kim, yuz tuman, ming balo,

Biz ul yuz tuman ming balodin jalo(SI, №64-b.)

Baytning mazmuni: “*U zulmat emas, jahannamdir, vodiy emas— do‘zaxdir. Qisqasi, u yer ya’juj deganlarning qarorgohidir. Bu ya’juj deganimiz yuz ming tuman balodan iborat bo‘lib, biz shu behisob balolardan qochganlarmiz*”.

Ya’juj— afsonaga ko‘ra, xunuk bashara, bahaybat, hamma narsani nobud qiluvchi, odamxo‘r mahluq.¹ Dostonning yetakchi leksik birligi. Chunki Iskandar qurdirgan devor aynan ana shu mahluqlarga qarshi qurilgan edi.

Tukiy tillar bo‘yicha, jumladan, o‘zbek tili bo‘yicha ot leksemalar doirasida qanday LSGlar mavjudligi hali to‘liq aniqlanmagan, faqat qavm-qarindoshlik nomlari, tana a‘zolari nomlari, hayvon nomlari kabi bir necha LSGlar o‘rganilgan.

Qavm-qarindoshlik nomlari LSGi o‘z navbatida bir necha kichikroq LSGlarga ajratiladi. Bunda LSGni turlicha asoslar bilan ajratish mumkin. Qavm-qarindoshlik nomlari doirasida, masalan, “bir avlod kishilari nomlari” LSGini ajratish va quyidagicha tasvirlash mumkin.

Shu jihatidan kishi dastlab bola deyiladi va bu tushuncha o‘zbek tilida farzand, zurriyot leksemalari bilan ham anglatiladi. Bu leksemalar sinonimik uyaga birlashib, paradigmatic munosabat hosil etadi. LSGga bu sinonimik uyaning dominantasi (bosh leksemasi) sifatida bola leksemasi kiritiladi. bola yosh jihatdan chaqaloq va go‘dak deb farqlanadi. Bu leksemalar o‘zaro darajali ma’no munosabati hosil etadi: ”yangi tug‘ilgan bola”— “emizikli bola”. Bola leksemasida “jins” semasi yo‘q, shunga ko‘ra jins o‘g‘il bola, qiz bola deb farqlanadi; odatda o‘g‘il, qiz leksemalarining yolg‘iz o‘zi ishlatiladi va bu leksemalar o‘zaro antonimik (oppozitiv) munosabat hosil qiladi. Dostonda **o‘g‘il** so‘zi qo‘llanmagan bo‘lsa-da, **qiz** so‘zi qo‘llangan. Bu so‘z 7 o‘rinda ishlatilgan:

*Ki, Dorog‘a **berdi qizin** shohi Rum,*

Yasab zeb ila, o‘ylakim naxli mum. (SI, 67-b.)

*Seningdek topa olmay ogoh **qiz***

Ki, dahr o‘lmasun sendek ogohsiz. (SI, 428-b.)

*Yana Ravshanakkim, **qizimdur** mening,*

Bukundin nari mensizimdur mening. (SI, 150-b.)

¹ Навоий асарлари луғати. —Т.: Ғафур Ғулом, 1973. 713-б.

Alisher Navoiy dostonida bola, chaqaloq, go'dak kabi leksik birliklarni umuman qo'llamagan. Bu o'rinda ularning forsiy ekvivalentidan foydalangan. Shoir farzandni naslni davom ettiruvchi sifatida uni arab tilidagi muqobili bilan almashtiradi. Ya'ni: **qurratul-aynu** deb ham ko'z nuri, ham farzand ma'nosida qo'llaydi. Shunisi e'tiborliki, shoir baytda pleonazmga yo'l qo'yadi, **qurratul-aynu** va **farzand** so'zlarini yonma-yon keltiradi. Faylaqus farzandsizlikdan qiynalardi:

Ki, nasl ichra yo'q erdi payvand anga,

*Murod erdi olamda **farzand** anga. (SI,65-b.)*

*Ani **qurratul-aynu** farzand etay,*

Ko'zum nurini anga payvand etay. (SI,205-b.)

So'zni bu kabi takrorlash chaqaloqni ikki karra – jon-jon deb farzand sifatida qabul qilinganligini ham anglatishi va yana so'zning ikki til birligi ekanligi ham, bu so'zni turli tillarda takrorlash shoh uchun huzur-halovat bag'ishlaganini anglatishi ham mumkin.

O'g'il balog'at yoshiga yetish oldida o'spirin, balog'at yoshiga yetganda yigit deyiladi; bu leksemalar o'zaro darajali semantik munosabat hosil qiladi. Bunday darajali munosabat hosil etish qiz leksemasi uchun xos emas, shuning uchun darajalanish zarur o'rinlarda ham qiz leksemasi ishlatilaveradi. Dostonida o'spirin so'zi umuman qo'llanmagan. Yigit so'zi esa 3 o'rindagina qo'llangan. Masalan:

*Ki: "Bu nav' zebo **yigit** yuz darig'*

Ki, qilg'ay bu vahshiydin oshom tig'!" (348-b.)

Oila qurayotgan yigit kuyov, qiz esa kelin deyiladi; yigit- kuyov, qiz-kelin leksemalari darajali semantik munosabat, kuyov-kelin leksemalari esa antonimik (oppozitiv)munosabat hosil qiladi. Kuyov bilan kelin oila sifatida yashay boshlaganidan keyin er bilan xotin deyiladi va bu leksemalar ham antonimik munosabat hosil qiladi: kuyov-er, kelin-xotin munosabati esa darajali semantik munosabatning bir ko'rinishiga teng. SHoir dostonida kelin so'zini qo'llamagan. Bu so'zning **arus** variantidan foydalangan: Dostonida kuyov so'zi qo'llanilmagan. Chunki kuyov Iskandar edi:

Ki, Chin ichra Iskandari Faylaqus,

*Chu topti iki o'yla zebo **arus**.(SI, 325-b.)*

Oilada bola tug'ilgandan keyin *er* ota mavqeiga, *xotin* esa ona mavqeiga erishadi; ota-ona leksemalari antonimik munosabat hosil etadi; er-ota, xotin-ona: ota-bola, ona-bola leksemalari esa darajali semantik munosabatning ko'rinishlarini aks ettiradi. Shundan keyingi semantik munosabat yana bola leksemasidan boshlab keyingi avlod uchun takrorlanadi. Dostonda *xotin* va *er* so'zlari qo'llanilmagan.

Obyektiv olamning sistemadan iborat ekanligi, uning ifodalovchisi bo'lgan til ham sistema ekanligi, tilshunoslik fani sistemani, ya'ni til sistemalarini o'rganishi e'tirof etilgan fakt. Bu, ayniqsa, tilning lug'at tarkibida, leksikasida aniq ifodasini topadi. Demak, asosiy maqsad obyektiv olamni tashkil etuvchi guruhlar va ularni tilda aks ettiruvchi hodisalarning – sistemalarning mohiyatini belgilashdir. "Til sistemasi", "leksik sistema", "leksik paradigma", "leksik-semantik guruh", "semantik maydon" kabi tushunchalar obyektiv olam sistemasiga xos guruhlanishlarni aks ettiruvchi tushunchalardir. Demak, o'zbek tili leksik sistemalarini tadqiq etishda ana shu tushunchalarning mohiyatini to'g'ri belgilash va aniq yoritish asosiy maqsad hisoblanadi. O'zbek tilida leksik-semantik guruh deb qaralayotgan hodisalarning bir turini leksik paradigma hisoblash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bob yuzasidan xulosa

“Saddi Iskandariy” dostonini leksik-semantik guruhlar asosida tadqiq etish ijodkorning tilning leksik zahirasidan foydalanish imkoniyatlarini atroflicha yoritishda, bu birliklarning o‘xshashlik qatori(paradigmasi)dagi mavqei xususida xulosalar berishda muhim ahamiyatga ega. Dostonda shaxs paradigmasi yetakchilik qiladi. Bu paradigma a’zolarining qo‘llanishida ayrim tarixiy va uslubiy jihatlar ko‘zga tashlanadi. Alisher Navoiy dostonda *bola*, *chaqaloq*, *go’dak* kabi leksik birliklarining forsiy ekvivalentidan farzand leksemasidan foydalangan. SHoir farzand so‘zini arab tilidagi muqobilini ham qo‘llaydi. Bu so‘z (***qurratul-aynu***) ham ko‘z nuri, ham farzand ma’nosida tushunish mumkin. SHunisi e’tiborliki, shoir baytda pleonazmga yo‘l qo‘yadi, ***qurratul-aynu*** va ***farzand*** so‘zlarini yonma-yon keltiradi(*Ani ***qurratul-aynu*** farzand etay*). So‘zni bu kabi takrorlash chaqaloqni ikki karra – jon-jon deb farzand sifatida qabul qilinganligini ham anglatishi va yana so‘zning ikki til birligi ekanligi ham, bu so‘zni turli tillarda takrorlash shoh uchun huzur-halovat bag‘ishlaganini anglatishi ham mumkin. Dostonda ***o’g’il*** so‘zi qo‘llanmagan, ammo ***qiz*** so‘zi 7 o‘rinda qo‘llangan. Dostonda ***yigit*** leksemasi ham nafaol, 3 o‘rindagina qo‘llangan. Shoir dostonda kelin so‘zining ***arus*** variantidan foydalangan, dostonda ***kuyov***, ***xotin*** va ***er*** so‘zlari uchramaydi.

Navoiy dostonga ***ya’juj*** tushunchasini olib kirar ekan, bu leksema na hayvonot olami paradigmasidan, na shaxs paradigmasidan o‘rin oladi. ***Ya’juj*** afsonaviy tushuncha sifatida “shaxs emaslik”, “hayvon emaslik” kabi belgilarni namoyon qiladi. ***Ya’juj***— afsonaga ko‘ra, xunuk bashara, bahaybat, hamma narsani nobud qiluvchi, odamxo‘r mahluq. Dostonning yetakchi leksik birligi sanaladi.

II BOB. “SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDA QO’LLANGAN LEKSIK BIRLIKLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

II.1. “Saddi Iskandariy” dostonida *kema, yer va tuhfa* leksemalarining semantik xususiyatlari

Dostonning LXXII bobi – “Iskandarning quyoshdek jahongirigidin so’ngra daryobor fathi uchun orzu kemasiga kirib, havas yelkanin tortqoni va hukamo ittifoqi bila Rum daryosi sohilida olam mulkining mohir najjorlarin yig’ib kema tartibig’a amr qilg’oni va uch ming hiloli qavsmonand qurulg’ondin so’ngra mihvarosotirlar bila alarg’a qattiq yoydin chiqqan o’qdek ravonliq bermaklari va aning ul safina(kema)larda mavj xutut(xatlar)idin bihor(daryolar) fathnomasin o’qug’oni” bobida shoh Iskandarning dengiz sayohati borasidagi go’zal orzulariga hamohang tarzda “orzuz kemasig”, “havas yelkani” kabi metaforik birliklarni qo’llaydi. Shoir dengizda saf tortib turgan kemalarni daryolar fathnomasi bitilgan farmonga qiyoslaydi. Ana shunday go’zal tasvirlar bilan boshlangan debochadayoq dostonning bu qismida Iskandar sarguzashtiga doir qiziq voqeliklar bayon qilinishiga ishora qilinadi.

Alisher Navoiy shoh Iskandar tilidan uzoq muddatli sayohat strategiyasini bayon qilar ekan, mazkur strategik loyiha juda aniq hisob-kitoblarga asoslangan ediki, ushbu puxta ishlab chiqilgan ijtimoiy- siyosiy va iqtisodiy loyiha Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan 2017-2021 yillarga mo’ljallangan harakat strategiyasining aynan tarixiy aspektdagi ifodasidir. Qiyoslab ko’raylik: “Majlis ahli Iskandar so’zini ma’qullagach, o’zining bu fikridan ko’ngli yorishdi. Tezdan hunarmand ustalarga kema yasash uchun shoshilinch ishga tushishlarini buyurdi. Qanday asbob-uskuna darkor bo’lsa, olib **uch mingta kema** sozlasinlar, dedi. Uning ming donasi shoh va u bilan birga hamroh bo’ladigan kishilarga xos bo’ladi; yana mingtasi arkoni davlatning, ya’ni davlat arboblarning dengizda ketishlari uchun; sakkiz yuztasi jangovar sipohlarga va

ikki yuztasi esa bozor-o‘char, oldi-sotdi qiladigan xodimlarga mo‘ljallanadi. Iskandar dengizlarning ofatlariga qarshi qurollangan va o‘zi uchun ajratilgan mingta kemani tubandagicha taqsimladi: yuztasi xuddi shahardek katta kema bo‘lib, unga tushgan odam shahar ichida yurgandek rohatda bo‘lishi kerak. Shahar bo‘lganda ham shunday shahar bo‘lsinki, unda ko‘cha-ko‘ylar, mahallalar va qo‘noqxonalar, saroylar bo‘lsin; yana uch yuztasining har biri — bermalol mingtadan askar sig‘adigan kema bo‘lib, undagi har bir odam sakkiz yilga yetadigan yaroq bilan ta‘minlangan va xotirjam bo‘lishi shart; yana ikki yuz kemaga safarda qatnashuvchi kishilar uchun g‘amlangan oziq-ovqat ortilishi kerak edi; yana yuztasiga tanob va arqonlar joylanishi lozim bo‘lib, bular bilan dengizning sathi o‘lchanadi; yana ikki yuztasiga tuyalar va otlar joylashtiriladiki, bularning qirg‘oqqa chiqqanda kerak bo‘lishi ko‘zda tutilgan; yana ikki yuzta tez yuruvchi, tezlikka ega, shamol bilan basma-bas o‘ynaydigan qayiq edi, qolgan ikki ming kema ham shularga o‘xshash bo‘lib, hammasini zebziynatlar bilan — hashamdor qilib bitkazishga buyurildi”.(SI, [nasriy bayoni],765-766-b.)

Mazkur matndagi asosiy leksik birlik **kema** ot-leksemasi bo‘lib, uning atributlari sonlar vositasida o‘z ifodasini topgan.

Asosiy leksik birlik Atributiv leksik birlik		<i>K E M A</i>		
uch ming (3000) Masolihki, dalkordur har nima Olib, soz qilg'aylar uch ming	Taqsim ma'nosi` [dona son	Uning	ming	shoh va u bilan birga
			dona(1000)si	hamroh bo'ladigan kishilarga xos bo'ladi
		mingta(1000) si		arkoni davlatning, ya'ni davlat arboblari uchun
		sakkiz yuzta(800)si		jangovar sipohlarga
		ikki yuzta(200)si esa		bozor-o'char, oldi-sotdi qiladigan xodimlarga mo'ljallangan

Shoir dostonida bu haqda shunday yozadi:

Ming andin bo'lub shoh azmig'a xos,

Hamul elgakim keldi bazmig'a xos.

Yana ming ham arkoni davlat uchun,

Suv ustida qilmoqqa sur'at uchun.

Sekiz yuz sipohiyi jarrorg'a,

Iki yuz yana ahli bozorg'a. (SI,383-b.)

Uch ming kema uch yil deganda bitib suvga tushdi.

Bu yanglig' o'tub uch yilu bir nima,

Tengiz suyig'a kirdi uch ming kema

Aningdekki, taqsim topti burun,

Tutub har kim o'z kemasida o'run. (SI, 384-b.)

Kemani qurishda 10-15000 najjor usta ishtirok etgan bo'lsa, ularni 2-3000 ish boshqaruvchi tun-u kun ishchilarni nazorat qilib turdilar.

Bu kishti yasar xaylning manzili,

Bo 'lub Rum daryosining sohili.

Hamul suv yoqosi iki-uch yig 'och,

Ko 'rub arrau teshadin kuch yig 'och.

O'n-o'n besh ming ustodi najjor edi

Ki, tun-kun ish ustida darkor edi.

Yana ***ikki-uch ming*** kishi borcha chust,

Ish etmak uchun kun-bakun bozjust. (IS, 384-b.)

Birinchi xos kishilar uchun mo'ljallangan kemalar shoir tomonidan tubandagicha taqsimlangan bo'lib, ularni quyidagi ma'noviy guruhlariga ajratish mumkin. Bu esa matnda "kema" konseptini namoyon qiladi:

<i>'Butunning ulushi(taqsim)'</i>	<i>'Kim yoki nima uchun mo'ljallanganlik'</i>	<i>'Ko'zda tutilgan maqsad' (nimaga?)</i>
<i>yuztasi</i>	<i>sayohatchi mansabdorlar</i>	<i>xuddi shahardek katta kema bo'lib, unga tushgan odam shahar ichida yurgandek rohatda bo'lishi kerak; shahar bo'lganda ham shunday shahar bo'lsinki, unda ko'cha-kuylar, mahallalar va qo'noqxonalar, saroylar bor</i>
<i>yana uch yuztasining har biri</i>	<i>Askarlar</i>	<i>bemalol mingtadan askar sig'adigan kema bo'lib, undagi har bir odam sakkiz yilga yetadigan yarog' bilan ta'minlangan va xotirjam bo'lishi shart</i>
<i>yana ikki yuz kemaga</i>	<i>oziq-ovqat</i>	<i>safarda qatnashuvchi kishilar uchun g'amlangan oziq-ovqat ortilishi kerak edi</i>
<i>yana yuztasiga</i>	<i>aslaha va anjomlar</i>	<i>tanob va arqonlar joylanishi lozim bo'lib, bular bilan dengizning sathi o'lchanadi</i>
<i>yana ikki yuztasiga</i>	<i>ish hayvonlari</i>	<i>tuyalar va otlar joylashtiriladiki, bularning qirg'oqqa chiqqanda kerak bo'lishi ko'zda tutilgan</i>
<i>yana ikki yuzta</i>	<i>shaxs(mavhum)</i>	<i>tez yuruvchi, tezlikka ega, shamol bilan basma-bas o'ynaydigan qayiq edi</i>

Bu nazmda quyidagicha ifoda topgan:

Mingikim raqam aylab o'z otig'a

Ki, bo'lg'ay panah bahr ofotig'a.

Yuzi *jung o'lub har bir andoqki shahr(100 ta kema)*

Ki, topqay kishi shahrdek anda bahr.

Bo'lub, o'ylakim shahr har jung aro,

Mahallotu ko'yu maqomu saro.

Yana uch yuz *ul nav'kim bexalal, (300 ta kema)*

Biri ming sipohig'a bo'lg'ay mahal

Ki, bo'lg'ay bori o'z farog'i bila,

Sekiz yil keraklik yarog'i bila.

Yana iki yuz *kemada zodi roh, (200 ta kema)*

Bo'lub ul ish ahlig'a oromgoh.

Yana yuzda *solib tanobu rasan, (100 ta kemada tanobu arqon)*

Masohatni qilmoqqa bahr ichra fan.

Yana iki yuzda *jammolu sutur (200 ta kemada tuya va fil)*

Ki, shoyad savohilg'a tushgay ubur

Yana yuz *kelib zavraqi tezrav(100 ta tezyurar kema)*

Ki, eltib suv uzra sabodin garav.

Yana iki ming *ham bu tartib ila,*

Butarga bori ziynatu zeb ila.(SI,383-b.)

Konsept termini tilshunoslikda o'tgan asrning 80-yillarigacha tushuncha so'ziga sinonim sifatida ishlatilgan bo'lsa¹, uning hozirgi vaqtdagi izohi tushuncha terminiga nisbatan kengroq ma'no kasb etganini ko'rish mumkin. Jumladan, N.Yu.Shvedova *konseptning* tushuncha ekanligini, bu tushuncha ortida esa ijtimoiy yoki sub'ektiv tarzda anglanuvchi, inson hayotining muhim moddiy, aqliy, ruhiy tomonini aks ettiruvchi, o'z tarixiy ildizlariga ega bo'lgan, xalqning umumiy tajribasini aks ettiradigan mazmun turishini qayd etadi².

D.Xudoyberganova o'zining "Matnning antropotsentrik tadqiqi" nomli monografiyasida kognitiv tilshunoslikning muhim masalalaridan hisoblangan

¹ Демьянков В.З. Понятие и концепт в художественной литературе и в научном языке // Вопросы филологии. - Москва, 2001. - №1. - С.35-47.

² Шведова Н.Ю. Избранные работы. - М., 2005. - С. 603.

konsept, asosan, lugʻaviy birliklar hamda gap vositasida, shuningdek, matn vositasida ham ifodalanishi mumkinligini taʼkidlaydi: “Matn orqali ifodalanagan konsept verbal bosqichda predmet va hodisalar munosabatini aks ettiruvchi tipik vaziyatlar haqidagi axborot sifatida namoyon boʻladi. Badiiy asarlarda matn vositasida ifodalanagan konsept asosan individual-muallifiy hamda badiiy konsept sifatida namoyon boʻlib, muayyan tushuncha haqidagi bilimlarga muvofiq keladi. Bunda matn makropropozitsiyasida tavsiflanayotgan konseptning soʻzlovchi uchun ahamiyatli boʻlgan biror jihati oʻz ifodasini topadi. Matn vositasida ifodalanagan konsept oʻzbek tilida yaratilgan tavsifiy xarakterdagi, shuningdek, shaxsning muayyan ruhiy holati ifodalanagan va mavjudlikni tasdiqlash mazmunidagi mikromatnlarda namoyon boʻladi”¹.

“Saddi Iskandariy” dostonida shoir *yer planetasini* quyidagicha izohlaydi. Natijada, ijodkor “yer” konseptini geshtalt asosida tasvirlaydi: “Yer jismining tuzilishi toʻgʻarak-kurra shaklida boʻlib, hayot egasi uni shunday qilib yaratdi. Lekin kurrayi arz suv ichida boʻlib, uning suvdan tashqaridagi qismi jahon deb ataladi. Uning obod shaharlar, togʻ va choʻllardan iborat inson yashaydigan qismiga yer yuzi deyiladi. Mana shu yer kurrasining suv bilan ihota qilingan ochiq va quruq qismiga yetti iqlim deyiladi. U ham tamoman ochiq emas, uni har tarafdin dengiz oʻrab olgan. Bahri Muhit — okean esa falak gumbaziga oʻxshagan boʻlib, uning atrofini yetti dengiz oʻrab olgan. U dengizlar har tarafdin yer kurrasida boʻlmish togʻ-u choʻllar orasiga kirgan. Bundan boshqa yana oʻn oltita dengizchalar boʻlib, har birining oʻziga xos oti bor. Shuningdek, yana yuzdan ortiq daryolar bor, ulardan el-yurt bahramand boʻladi. Masalan, Koʻhak-Zarafshon, Hirot daryosi, Nil va yo Furot daryosi kabi. Jahondagi obodonchilik mana shu daryolar sharofatidan boʻlib, xalq ekin-tikinni sugʻorib, foydalanadi. Bu daryolarning asl manbai buloq-chashmalardan iborat, lekin oxiri dengizlarga borib quyiladi. Haligi yetti dengizning oraligʻida esa jaziralar boʻlib, bularda qanchadan-qancha shaharlar mavjud. Endi ularni

¹ Худойберганова Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. —Тошкент: Фан, 2013. -С. 120.

sharhlashga kirishmasdan ilgari shuni bilishimiz kerakki, yuqorida zikr qilingan dengizlarning hammasi ham dono Suqrot bahri Muhit deb atagan okeandan ajralib chiqadi. Ulardan bittasi Rumu Farang dengizi, Mag‘rib dengizini ikkinchi deb taxmin qilaylik, u doim tinimsiz mavjlanib turadi. Uchinchisini Zangu Habash bahri deb hisoblasak, uning to‘lqini va po‘rtanalarini ko‘rganingizda, devona suv ekan, deb o‘ylaysiz. Hind dengizi to‘rtinchi hisoblanadi. Hind bahri to‘s-to‘polon bilan to‘la notinch dengizdir. Beshinchisi Chin-Xitoy dengizi sanaladi. Duvong degan so‘nggi oltinchi dengizdir. Ettinchisini Mashriq, dengizi deb hisoblayver, quyosh avval shu sharqdan nur taratib chiqadi.(CI, 760-761-b.)

<i>Izohlanayotgan leksik birlik</i>	<i>Matndagi ma’nodoshlari</i>	<i>Shakl-shamoyili</i>	<i>Xossasi</i>
<i>Yer shari</i>	<i>yer jismi</i>	<i>to‘g‘arak-kurra</i>	<i>hayot egasi tomonidan yaratilgan</i>
	<i>kurrayi arz</i>	<i>planeta</i>	
	<i>Jahon</i>	<i>suvdan tashqaridagi qismi</i>	
	<i>yer yuzi</i>	<i>obod shaharlar, tog‘ va cho‘llardan iborat inson yashaydigan qismiga</i>	
	<i>yer kurrasi</i>	<i>Planeta</i>	
	<i>yetti iqlim</i>	<i>suv bilan ihota qilingan ochiq va quruq qismi</i>	
	<i>kesak</i>	<i>suv ichida</i>	<i>balchiq</i>

Alisher Navoiyning yer kurrasi haqidagi tasavvurlarini kognitiv tilshunoslik doirasida quyidagicha izohlash mumkin: “Yaxlitlik tarkibidagi elementlarning joylashuv tartibi qanchalik muntazam bo‘lsa hamda ularning o‘zaro munosabatlari uzviy bo‘lsa, ushbu yaxlitlikning tafakkurdagi obrazi ham shunchalik aniq va yaqqol ko‘rinish oladi”(Vertxaymer).¹ Voqelikni idrok etish va ruhan his etish yaxlitlikni “ko‘rish”dan boshlanadi. Ayrim tadqiqotchilar

¹ Каранг. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. –Жиззах: Сангзор, 2006.50-б.

predmet-hodisalar haqidagi tushuncha, konseptning hosil bo'lishi hamda keyingi bosqichda ushbu konseptning lisoniy voqelanishini predmetning alohida belgi, xususiyatlarini payqash va alohida ajratib olishdan boshlanadi, degan fikrdalar.¹ Geshtalt yaxlit tuzilma sifatida matnni mazmuniy qismlarga bo'lish hamda ushbu mazmun doirasida matn va qismlarni kengaytirish imkonini beradi.² Geshtalt olmoncha so'z bo'lib, **geshtalt** – `obraz`, `struktura`, `yaxlit shakl` degan ma'nolarni anglatadi. Bu tushunchani tilshunoslikka J.Lakoff tatbiq etgan.³ Navoiy dostonida yer shari(jahon)ni ulug'roq bir kesak sifatida tasvirlaydi. Aynan kesak so'zining matnda "yer kurrasi" ma'nosida kelganini uning uchdan biri quruqlik sifatida qayd etilganligi bilan izohlash mumkin. Navoiy talqinida *yer shari* konsepti – "bu ulkan kesak", demak. Bu qarashni Navoiy geshtalt vositasida tasvirlaydi. Bu kesak suv ichiga g'arq bo'lgan, ya'ni uni chuqur dengiz o'z ichiga olgan (Navoiy tasavvurida bu chuqur dengiz – bahri Muhit, ya'ni Tinch Okeani). Bu ulkan kesakning uchdan biri suv ichida turadi. Kesakning suvda turgan qismigina pok(suvning poklash xususiyati e'tiborga olingan). Suvdan tashqaridagi uch qismi esa nopok. Bu kesakning suv bilan aralashmasi – "bolchiq". Inson bu balchiq va garddan uzoqroq yurmoq kerak. Bu bilan shoir bu o'tkinchi dunyoning hoyi havaslariga berilmaslikka undaydi. Biz havas qilayotgan, intilayotgan narsa aslida balchiq va garddan boshqa narsa emas. Quyida ana shu mazmun ifodalangan baytlar keltirilgan.

1. *Jahon nedurur– bir ulug'roq kesak, Yiroq tortqil ul kesakdin etak.*
2. *Ki, bor ul kesak suv ichinda g'ariq, Olib o'rtag'a oni bahri amiq.*
3. *Erur oning uch rub'i daryo sori, Yana rub'i keldi sudin toshqori.*
4. *Nekim suv aro topti poludaliq, Etak topmag'ay andin oludaliq.*
5. *Hamul rub'ikim bahrdin keldi fard, Erur mumkin andin zamiringg'a gard.*
6. *Bu balchig' bila gard aro qilma xo'y, Bo'l aning firoqi sori garmpo'y.*

¹ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. –Жиззах: Сангзор, 2006. 47-б.

² Сафаров Ш. Ўша манба. 50-б.

³ Қаранг. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. –Жиззах: Сангзор, 2006.49-50-б.

7. *Ki, kirgan bu bolchiqqa imkon emas, Kishi botsa chiqmog'lig' oson emas.*

Dostonda berilgan geshtaltlardan yana biri Xitoy hoqonining tuhfalari bilan bog'liq tasvir. Dostonda hoqon o'z minnatdorchiligi ramzi sifatida Iskandarga shunday shohona tuhfalar hadya etadiki, butun olam bu sovg'alarning ko'pligi va aslligidan lol qoladi (*Bu yanglig' yasab peshkashlar o'zi Ki, hayron qolib anda davron ko'zi*). Shu o'rinda dostonda shoir tomonidan "tuhfa" konsepti shakllantiriladi va bu konsept bir qator leksik birliklarni qamrab oladi: **otlar, tuyalar, xachirlar**, [*bir ming to'qqiz yuz xil*] **uy jihozlari, yashil tusli may quyadigan idishlar, chinni asboblari**, [*Mengizlari gul-gul, mijalari xor, Qabog'lari keng-keng, og'izlari tor*] **kanizlar, haqiqat oynasi, Chin go'zali.**

Chin xalqiga azaldan odat bo'lgan mehmondorchilik usuli to'qqiz-to'qqiz taqdim qilishga kirishadilar:

1. Iskandar uchun hoqonning o'zi shunday sovg'alar tayyorladiki, buni ko'rib, butun dunyo odamlari hayron qoldilar. Jumladan, tuhfalar ichida **mingta ot(1)** bo'lib, bularning barchasi ohu va qulonga o'xshash yugurik, hatto ohudan ham, qulondan ham o'zadigan chopqir otlar edi. U otlar chopganda havoga ko'tarilgan gardga yel ham yetolmas, shamolning tezligi esa bu otlar oldida hech edi. Ular yugurishda bulut-u, sakrashda chaqmoqqa o'xshagan bo'lib, barchasi chaqmoq singari oltin rangiga belangan edi. Egarlari ham oltin, jabduqlari ham, taqalari ham oltin, uzangilari ham. Har bir otning ustiga CHin zarbaftlaridan yopiq yopilgan bo'lib, undagi taqinchoqlar la'l va qimmatbaho durlardan edi. Masalan: *Ming ot– borchahutaku go'rdav, Bori go'ru ohudin eltib garav.*(SI, 294-b.)

2. Yana har biri tog'dek tanaga ega bo'lgan **ming dona tuya** (2)bo'lib, har birining vujudi falak filiga monand edi. Bu tuyalar jussada falakka o'xshasa ham, yuvosh va beozorlikda malaklarga o'xshardi. Tuyalarning asbob-anjomlari ham Chin, Xitoyning go'zal matolaridan bo'lib, ularga qimmatli tosh va javohir

kabi zeb-ziynatlar taqilgan edi. Masalan: *Yana ming teva— har biri ko‘htan, Falak pilicha har biriga badan.*(SI, 295-b.)

3. Yana **mingta tezqadam xachir(3)**ki, yurishda har biri sarkash falakni eslatardi. Bularning yurish va chopishlari ham joyida bo‘lib, egar-u uzangilari ham haligilardan qolishmasdi. Boshqa asbob-anjomlari ham yuqoridagi ot, tuyalarniki singari kam-ko‘stsiz edi. Masalan: *Yana ming xachir, borchasi tezgom, Sipehri harundek borig‘a xirom.*(SI, 295-b.)

4. Yana **bir ming to‘qqiz yuz xil uy jihozlari(4)** qanday taxlanib, tugilgan bo‘lsa, shunday yechilmay turardi. Bu tugunlar rang-barang ko‘rinishi bilan go‘zal bog‘ni eslatsa ham, og‘irlikda har qaysi bir toqqa o‘xshar edi. Yana yashil toshlardan yasalmish, anvoyi bezaklar bilan ziynatlangan mingta har xil idish-oyoq bo‘lib, bularning har biri latofatda bir-biridan go‘zal edi. Masalan: *Yana ming to‘quz raxti naxxu nasej, Ochilmay, nechukkim topib tobu pech.*(SI,295-b.)

Raxti - uy asbob-anjomi¹; naxxu nasej - zardor harir va ipak gilam.²

5. Yana **mingta chinni asbob (5)**, aylanasi sayr etuvchi quyoshga o‘xshash oltin rangli edi. Masalan: *Yana chini olot ming porcha, Idora aro mehri sayyorcha.*(SI, 296-b.) Chinni olot – chinni idishlar.³

6. Yana **mingta** qaddi-qomati kelishgan, hammasining sunbul sochlaridan mushk atri gurkirab turgan gul yuzli **kanizaklar(6)** bor edi. Ularning yuzlari gul-gul ochilgan, kipriklari tikansimon, qovoqlari kengu, og‘izlari tor-tor edi. Ular noz-ishva bilan dillarni band etardilar. Liboslariga shunday zeb berilgan ediki, chegarasi yo‘q. Bulardan tashqari, ikkita ajoyib tuhfa ham bor edikim, bunday taajjub tuhfa dunyoda kam bo‘lardi. Misol: *Yana ming sihi qaddu gulxad kaniz, Bari sunbuli zulfdin mushkbez.*(296-b.)

7. Buning **biri oyna(7)** bo‘lib, Jamshidning jomini eslatardi. U yorug‘likda quyosh oynasiga o‘xshar edi. U falak quyoshi singari bo‘lsa ham, lekin hali uni “Oyinayi chin”(haqiqat oynasi) der edi. Bu oynaning ikkala beti

¹ Навоий асарлари луғати(НАЛ). Бир жилдлик. –Тошкент, 1972.523-б.

² НАЛ. –Тошкент, 1972. 454-б.

³ НАЛ. –Тошкент, 1972.483-б.

ham oy va kundek yorug‘ bo‘lib, sira zanglamas va doimo billurdan ham tiniq edi. Buning bir beti kishi aksini ko‘rsatadigan darajada yorug‘ bo‘lgani holda, ikkinchi beti oddiy oynalarnikiday qora emas edi. Uni tilsim qilib yasagan hakimlar, u oynaning ikki betiga ikki xil ko‘rsatish qobiliyatini bergan edilar. Masalan, uning bir yuzi shunday yasalganki, qachon shoh adolat taxtiga o‘tirib, xalqning arz-dodiga yetmoqchi bo‘lsa, kishilar bir-biri bilan da’volashib, bulardan biri narigi tomonning da’vosini inkor etsa, da’voning qanchalik haq ekanini aniqlash uchun guvoh kerak emas, javob egasining oynaga bir qarashi kifoya edi. O‘sha qarashda agar da’vosi rost bo‘lsa — oynada yuzi ko‘rinardi, yolg‘on so‘zlagan bo‘lsa, yuzi ko‘rinmasdi. Yana ikkinchi yuzining tilsimi shundan iborat ediki, agar shoh bazm paytida may ichib o‘tirganda, majlisdagilar shu oynaga boqib, o‘z basharalarini tamosho qiladigan bo‘lsalar, me’yori bilan may ichuvchilarning basharalari o‘z holicha— butun borlig‘i bilan aks etardi. Agar bordi-yu, birov may ichib, aql-hushini qo‘ldan berib, badmastlik qiladigan darajaga borib qolsa, oynada buning yuzi buzilib — uzun, qisqa, yapaloq, kichik va katta bo‘lib aks etardi. Shundan so‘ng ko‘zguga qarovchi shaxs o‘z yuzini bu ahvolda ko‘rgach, tezda may ichishni to‘xtatib, xushdil bo‘lardi. Va shundan so‘ng buzuq ahvolini tuzatishga, o‘zini el orasida sharmanda bo‘lishdan saqlashga harakat qilardi. Masalan: *Va lekin iki bul’ajab tuhfa ham, Ki, andoq kelib bul’ajab tuhfa kam. Biri ko‘zguyi jomi Jamshiddek, Safo ichra mir’oti xurshiddek.*(SI,296)

Mir’ot – oyna, ko‘zgu.¹

8. Bu oynadan keyingi **ikkinchi tuhfa bir Chin go‘zali**(8) bo‘lib, uni go‘zallikda jon ofati, yo‘q, jon ofati emas, jahon ofati desa bo‘lardi. Masalan:

Jami matnda 6902(oxirgi 2 tuhfani bilan qo‘shib hisoblaganda) miqdorini tashkil etuvchi tuhfalar soni ma’lum bo‘ldi. Ammo bu miqdorning to‘g‘riligiga bir shubha bor. “Xamsa”ning 525 yilligi munosabati bilan “Yangi asr avlodi” nashriyoti tomonidan 2010 yilda chop etilgan “Saddi Iskandariy” dostonining nasriy bayonida berilgan tuhfalarning adadi 1000tadan emas 9000tadan deb

¹ HAJI. 394-6.

ko‘rsatilgan. Dostonning www.ziyouz.com kutubxonasidan o‘rin olgan nazmiy va nasriy variantlarida tuhfarlar adadi ta’kidlaganimizdek, 1000 tani tashkil etadi. Birgina uy jihozlari soni 1900 ta deb berilgan. Yana shunisi ham borki, xitoyliklar odatiga ko‘ra to‘qqiz-to‘qqiz taomilida tuhfarlar 9 turda bo‘lishi kerak edi. Dostonning 2 xil nasriy varianti solishtirilganda ham tuhfalarning 8 turdaligi aniqlandi. Faqat she’riy matndagi quyidagi bayt tanqidiy matnga kiritilmay qolganini hisobga olsak, tuhfarlar adadi 9 taga yetadi. SHu tariqa umumiy nisob ham o‘zgaradi: 7902ta. Nasriy matnlarda **qayd etilmagan in’om** yashil rangdagi va may quyiladigan idish(avoniyu zarf)lardir. Chunonchi:

Yana yashmdin ming avoniyu zarf,

Latofat aro bir-biridin shigarf.(SI,296-b.)

Birinchi misraning ma’nosi “Yashil toshdan ishlangan (yashil rangli, shaffof bo‘lsa kerak) va may quyiladigan idishlar”. Baytdagi shigarf so‘zini “Navoiy asarlari lug‘ati”¹da berilganidek, *shingarf* deb hisoblasak, bu bayt aynan may quyish uchun mo‘ljallangan va yashil rangdagi shaffof shisha idish(yashm avoniy)larni nazarda tutganligini bilish u qadar qiyin emas. Ya’ni, *yashm* – *yashil rangli tosh*, *avoniy-idishlar*, *zarf* – *may quyiladigan idish*. Bu tahlildan tashqari, yana bir dalilni aytish mumkinki, tuhfarlar sanalayotgan har bir baytda *yana* so‘zi takrorlangan. Bu so‘z tuhfa nomlarini ta’kidlash va baytlar ko‘rinishidagi matnlarni mazmunan bog‘lash uchun xizmat qilgan. Qiyoslaymiz:

Yana yashmdin ming avoniyu zarf,

Latofat aro bir-biridin shigarf.

Yana chini olot ming porcha,

Idora aro mehri sayyorch.

Yana ming sihi qaddu gulxad kaniz,

Bari sunbuli zulfdin mushkbez.(SI, 296-b.)

¹ Навоий асарлари луғати. I жилдлик –Тошкент, 1972.

II.2. Dostonda *oltin* leksemasining semantik xususiyati

Iskandar xasta vujud bilan ot ustida borar ekan, a'zoyi badanining og'rig'idan nihoniy ingrar edi. U dashtda shunday tez, shoshqin va jadallik bilan ot surar ediki, unga hech kim yetolmas va hamrohlik qilolmas edi. Saratonning yondiruvchi haroratidan olam o'rtanar, suvlar qaynar — juga urar edi. Quyosh alangasidan yer shunday qizigan ediki, bu narsa havoni ham haddan ziyoda isitib yuborgan edi. Issiqning o'ta zo'rligidan yerlar yonar, kishining oyog'i yerga tegsa part bo'lar edi. Iskandar o'z arg'umog'ini ortiq choptirolmay qoldi, zero, bu issiq, uning bemor jismidan tob-toqatini olgan edi. U tanasida quvvat qolmaganini, yurishga iloj va imkoniyati yo'qligini his qilib, otini to'xtatdi va shamol o'zini tuproqqa urgandek, qizib yotgan qumloq ustiga o'zini tappa tashladi. Betoblikdan jismida harorat bo'lgani tufayli tamom a'zoyi badani titrar edi. Uning ostiga biron narsa solinguncha turishga toqati yetmay, og'riqnng zo'ridan o'zini yerga tashladi. O'sha yerda bir eski ko'ha(qadimgi urush asboblari) biri) bor edi, uni yozib, Iskandarni o'shaning ustiga olib yotqizishdi. Hammayoq jazirama oftob bo'lib, u cho'l haddan ziyoda qizib ketgan edi. Shu sababdan bemor ustiga kimdir o'z qalqonini soyabon qildi. Bu sarkardaning qalqonini yasagan usta uni boshdan-oyoq oltin suvi bilan ziynatlagan ekan. Shoh bir zamon o'zining taqdiri haqida fol ochdirganida, hayotining nihoyatida, ya'ni o'limi oldida, uning yotgan yeri temir-u, osmoni — oltin bo'lajagini tole' ahkomida o'qigan edi. Darhaqiqat, shoh hozir o'zining yotgan yeri temiru osmoni oltin bo'lganini ko'rib, ishning boshqacha ekanini fahmlab qoldi va beixtiyor ko'zidan alamli yosh to'kib, ana shu yosh bilan jonidan qo'lini yuvib, hayotdan umidini uzdi:

Tushub erdi bir ko'ha, ochti ani,

Uzoldi hamul ko'ha uzra tani.

Chu behad qizimish edi ul yobon,

*Birov qildi **qolqon** bila soyabon.*

Magar aylagon ul sipahdorliq,

Qilib erdi qolqonni zarkorliq.

O'qub erdi shah tole' ahkomida

Ki, oning hayotining anjomida:

Temurdin er, oltundin o'lg'ay samo,

Anga bo'lg'ach ul iki suratnamo

Ki, arzi temur, charxi oltun erur,

Yaqin bildikim, ish digargun erur.

Ko'zidin to'kub ashk qayg'u bila,

Ilik yuvdi jonidin ul su(v) bila. (SI, 410-b.)

Ko'rinib turibdiki, *oltin* Iskandar bilan bog'liq voqeliklarda alohida ahamiyatga ega. Hattoki xitoylik podshohning tuhfarida ham oltin bilan ishlangan yoki zarhallangan buyumlar, ashyolarga alohida e'tibor qaratiladi. Bir qarashda Iskandarning o'limidan oldin ostiga to'shalgan ko'ha va quyosh nuridan soyabon tarzida foydalanilgan oltin bilan ishlov berilgan qalqon shunchaki voqelik sifatida taassurot uyg'otadi. Biroq buning zamirida boshqa bir ma'no bor. Tasavvuf ta'limoti bo'yicha ilohiy ishq insonni kamolotga erishtiradiki, bu kamolot qalay yoki misni oltinga aylantiradigan alkimyoning aynan o'zi. Iskandar dengiz sayohati davomida Tinch okeani tubiga shisha sandiqda tushib, u yerdagi g'aroyibotlarni kuzatar ekan, shu o'rinda unga g'ayb sirlari ayon bo'ladi. Suv ostida turgan holda Iskandar yer yuzining suvdagi jilvasini ko'radi. Bu holni Navoiy nabiylik va valiylik bilan tenglashtiradi. Dostonning dastlabki misralarida ham bunga ishora qilingan o'rinlar mavjud:

Chu Haq aylab ul nurni sham'i jam',

Aning nuridin yorutub jam'i sham'.

Bu mash'al chu o'z shu'lasin yorutub,

Rusul sham'i andin yorug'luq tutub.

Demaykim rusul, har nekim topti ruh,

Bu kibritdin borchu topib futuh.

Ne kibrit, gugirdi ahmar ham ul.

Ne gugird, iksiri akbar ham ul.

Vujudindin aylab qazo kimiyo,

Misin oltun aylab bori anbiyo .(SI,12-b.)

Bu o‘rinda matndagi ayrim so‘zlar izohiga to‘xtalish joiz bo‘ladi.

Kibrit – oltingugurt, gugurt(NAL, 311-b.)

Gugirdi ahmar – qizil gugurt(NAL, 162-b.)

Iksiri akbar – a. 1.Mis, qalay kabi qiymati past ma’danlarni oltinga aylantirish hamda barcha kasalliklarni da’f qilish xosiyatiga ega deb ishonilgan faraziy kimyo “ilmi”; 2. Kamolga erishgan ulug‘ zot (pirning) nazari, ta’siri; 3. Favqulodda ta’sir kuchiga ega bo‘lgan narsalar. Masalan: ishq, oshiqlik. (NAL, 162-b.)

Iskandarning o‘limi oldidan xastalangan jismining kuchli isitmada yonishi alkimyo sinoatlaridandir. Iskandar valiy sifatida ruhiy kamolotga erishishi, sof oltinga aylanishi uchun ana shu isitma otashida toblanishi va bu qazo kimiyosidagi so‘nggi jarayonni bosib o‘tishi lozim edi. Ana shunda tom ma’noda misning oltinga aylanish xossasi namoyon bo‘ladi. Ya’ni “*Ne kibrit, gugirdi ahmar ham ul, Ne gugird, iksiri akbar ham ul*”bois edi. Shu o‘rinda Navoiy semantik takrorning klimaks turidan foydalanadi. SHoir ma’noni quyi darajadan yuqori darajaga tomon kuchaytirib ifodalaydi. Bu oltingugurt(kibrit) ham emas, qizil gugurt(gugirdi ahmar) ham emas, balki iksiri akbardir. Ya’ni:

Vujudingdin aylab qazo kimiyo,

Misin oltun aylab bori anbiyo .(SI,12-b.)

II.3.Dostonda tabiat tasviriga oid eng muhim leksik birliklar(bahor fasli misolida)

Jahon bog‘i ko‘p dilkashdir, ammo u yigitlik bahori bilan yana yoqimliroqdir. Kishining umri kecha-kunduz demay o‘tsa ham yigitlikda bahor fasli o‘yin-kulgi ayyomidir. Hut kirishi, sabzalarga jon bitishi bilan doim tirik va abadiy o‘lmas yaratguvchi oftobni hamal sabzazori (burji) tomon yo‘llab, tabiat ne‘matlarini quyosh harorati bilan parvarish qilish taraddudiga tushadi. Quyidagi baytlarda bahoriy bog‘ tasvirini berish uchun shoir **yel**, **bahoriy**

bulut(nil daryosiga g‘arq bo‘lgan fil misoli)kabi leksik birliklardan foydalangan. Masalan:

*Bu yel Iso anfosin isbot etar
Ki, bog‘ ichra ihyoi amvot etar.
Bahoriy bulut pildek bedarang,
Qilur jilva har yon, bori pilrang.
Rutubat aro go‘yo ul xayli pil,
Bo‘lubtur bori g‘arqi daryoyi Nil.
Gar andoq emas, bas nedur, ayt bu
Ki, har yon alardin tomar qatra su(v)
Dema qatrakim, poyaboron degil,
Dema pil, abri bahoron degil.
Chu abri bahori sochib durri nob,
Sabo kojidin rangi gardun kibi.(SI, 320-b.)*

Baytning mazmuni: “Xuddi Muso payg‘ambar dam urganidek, subhidamning ruhparvar nasimi esib, suvi qochib qolgan daraxtlarga jon bag‘ishlaydi. Bu tong shabbodasi bog‘ ichidagi o‘liklarni tirgizish bilan Iso nafasiga o‘xshagan hayotbaxshligini isbotlaydi. Fildek to‘xtovsiz yuradigan bahor bulutlari xuddi fil singari har tomonni qoplab oladi. Rutubat ostida qolgan shu fillar to‘dasi (bahor buluti) go‘yo Nil daryosiga g‘arq, bo‘lmish fillarni eslatadi. Agar shunday bo‘lmasa, aytchi, bu nimadir? Axir har tomonga ularning badanidan qatra-qatra shabnam tomib turadi-ku. Bularni qatra emas, yomg‘ir sollari degin; fil emas, bahor bulutlari degin. Bahor bulutlari dur tomchilarini sochishi bilan chamanzorlar obi-tobiga kelib, yashnab ketadilar”.

Keyingi baytlarda gap bahoriy chamanzordagi **yashil maysa va gullar** xususida boradi. **Sabza, lola, sunbul, sarv, binafsha, nargis** kabi:

*Ochib er ragin sabzaning nishtari,
CHiqib qon kibi lolai ahmari.
Bo‘lub go‘yo ul qong‘a mayli fasod,
Nedinkim bo‘lub zohir andin savod.*

CHaman aylabon hullasin rang-rang.

Tugub hulla xil'at uchun tang-tang.

Giyah bog' aro chinioyin bo'lub

Ki, har gul anga lu'batl Chin bo'lub.

*Bo'lub **sunbuli** targ'a sarv uzra pech,*

Qadu zulfdin bo'lmayin farqi hech.

Gul atrofidin shoxi sunbul chiqib,

Yuz oldidin andoqki kokul chiqib.

Binafsha boshin andin aylab quyi

Ki, ostig'a oning kirib mul suyi.

Agar topmasa ul su birla gazand,

Nega raxt erdin ko'tardi baland.

*O'zin tifli **nargis** qadahxo'r qilib*

Ki, limu terisini sog'ar qilib.

Va yo limuyi bo'rki topti shikast

Ki, davrin biyik qildi, uchini past.

*Chiqib **savsan** oshufta majnun kibi,*

Sabo kojidin rangi gardun kibi.(SI,321-b.)

Baytlar mazmuni: "Sabzalarning nishtarlari yerni yorib chiqadilar qizil lolalar xuddi qon kabi hammayoqni bo'yaydilar. Go'yo qonda fasod paydo bo'lsa kishi qorayib ketgani kabi bu faslda ko'ksida qora dog'lari bo'lgan lolalar paydo bo'ladi. Chaman liboslarini rang- barang qilib, xil'atlarini boshdan-oyoq gul bilan bezaydi. Bog'dagi giyohlar Chin tabiatini namoyish qilgani kabi, u yerdagi har bir gul Chin go'zallarini eslatadi. Yashnab ko'karayotgan sunbullarning sarvga chirmashib turishi go'zallar vujudida turgan o'ram-o'ram sochdan farq qilmaydi. Gul atrofidan sunbul novdalarining chiqib turishi yuz atrofidagi soch kokillariga o'xshaydi. Gunafshaning tagiga suv sharobi kirgani uchun uyatdan boshini quyi solib olgan. Agar u suvdan ho'llanmagan bo'lsa, nima uchun liboslarining etagini qayirib oldi? Yosh nargis dalada may ichishga o'rganib, limu po'stlog'idan piyola qilib olibdi. Va yoki limu rangli ezilib

qoldimikin, chetini qayirib, ichini chuqur qilib qo'yibdi? Majnun kabi shalvirab yotgan gulsavsarning rangi tong shabadasi zarbidan xuddi osmonga o'xshab ko'karib ketibdi. Yuzidan xotirjamlik ko'rinsa ham, qattiq zavqqa berilishi natijasida u behol bo'lib qolgan".

Quyidagi baytlarda ham gullar tavsifi berilgan: **gul(atirgul), nastarin, arg'uvon.**

*Shabistonda **gul** ravshan aylab charog',
Fatila yasab g'uncha qo'ymoqqa dog'.
Sabo doyasi chun bu ishni bilib,
Fatilasin oning parishon qilib.
Qilib shoxini **nastaran** siymgun
Kim, ul siym atrofin aylab nigun.
Bosib siym bo'lg'och garonbor ani,
Hamul shoxdekkim bosar qor ani.
Bo'lub jilva qilg'on zamon **arg'uvon**,
To'ni arg'uvonrang, lek navjuvon. (SI, 323-b.)*

Mazmuni: "Olovdek shu'la sochib turgan qizil gulni ko'rib bulbul bechora samandar kabi kuyib-yonadi. U yonib-shu'lalanib turgan gul emas, bulbul uyasiga tushgan o'tdir, yo'q uyasiga emas, joniga tushgan otashdir. Tong xabarchisi bo'lmish sabo nasimi chamanlarni kezarkan, bahor doimo oltin tusga kiradi. Kechasi bog'ni gul o'z chirog'i bilan ravshan qilganda g'unchalar uning yonishi uchun pilik yasab turadilar. Sabo doyasi bo'lmish tong yeli g'unchaning bu ishini bilgani uchun uning gulbarglarini fatila-fatila qilib ochadi. Nastarin guli shoxlarini oppoq qilib, kumush shoxlar atrofiga egilib yotadi. Uni kumush bosib, yuki og'ir bo'lgach, xuddi qor bilan qoplangan shoxlarga o'xshaydi. Go'zal arg'uvon guli ochilib, jilva qilgan paytda to'ni qizil-u lekin o'zi yosh yigitlarni eslatadi. Shamol uni har yonga tebratarkan, u o'z qizil to'ni bilan jilvalanib, hammani maftun etadi".

Nabotot so'zining asosi *nabot* asli arab tilidan o'zbek tiliga bilvosita o'tib o'zlashgan. *Nabot* – 'giyoh', 'o't-o'simlik' ma'nosini anglatadi. Arab tilida bu

asosdan yasalgan soʻzlar *oʻsmoq, oʻsish, pishib yetilmoq* kabi maʼnolarni bildiradi¹. “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati”da 300 dan ortiq oʻsimlik nomlari mavjud boʻlib, ular mevali va mevasiz daraxtlar hamda ularning mevalari, gullar, sabzavotlar, maysa-oʻtlar va ularga aloqador boʻlgan soʻzlarni oʻz ichiga oladi.

“Koʻhna soʻzlar tarixi”² kitobida Alisher Navoiy asarlarida qoʻllangan oʻsimlik nomlari geneologik jihatdan quyidagicha belgilangan: umumturkiy va oʻzbekcha soʻzlar - 34 ta, arabcha soʻzlar - 53 ta, fors-tojikcha soʻzlar - 204 ta. Bundan tashqari, tilshunos arabcha-forscha va forscha-turkiycha aralash tarkibli 14 ta soʻz mavjudligini qayd qiladi. Oʻsimliklar olamiga mansub jami 305 ta soʻzdan (foiz hisobida) umumturkiy va oʻzbekcha soʻzlar-11,1 %, arabcha soʻzlar - 14,4 %, fors-tojikcha soʻzlar 66,9 % va aralash tarkibli soʻzlar - 4,6 %ni tashkil etadi.

Shundan soʻng matnda barcha bahoriy leksik birliklar qorishiq holda qoʻllanadi: **bulut(bola, fil, sher), terak, gul, chaman, jannat, yomgʻir, arilar**. “Bulut bolalar, yaʼni kichik bulutchalar oʻz qatralari bilan pargor ila mashq qilayotgandek, suv yuziga davralar chizadi. Yoʻq bola emas, goʻyo Moniy hech qanday asbob va pargorsiz yuz tuman davra chizayotgandek tuyuladi. Terakka payvand qilingan gulning qaddi-qomati gul yuzli sarvning oʻzginasidir. Chaman xuddi goʻzal jannatga, undagi gul va sarvlar esa huru gʻilmonga oʻxshaydi. Gulzor ustiga bahor bulutidan yoqqan yomgʻirning har bir tomchisi yirik dumaloq durdek bebahodir. Seryogʻin bulutlar bir-biridan oʻzib, xuddi hayqiruvchi sherdek naʼra tortishadi. Arilarning guvillashidan boqqa zilzila tushib, chaqmoqning shuʼlasidan ular boʻynida oltin zanjir silsilalari paydo boʻladi. Yomgʻirlarning har bir qatrasini obi hayotu uning osmondan tushib kelayotgan har bir torini jon ipi deyavering”.

Shoir bahor tasvirini maʼlum mazmundagi bayt bilan boshlab, shu mazmundagi bayt bilan tugatadi. Baytda *yel* va *bulut* soʻzlari uyushtiruvchi leksik birliklar sifatida alohida ahamiyatga ega. Va bu jihat Navoiy eʼtiboridan

¹ Бафоев Б. Кўҳна сўзлар тарихи.-Т., 1991. 63-б.

² Бафоев Б. Кўҳна сўзлар тарихи.-Т., 1991

chetda qolmagan. Har bir soʻzning qoʻllanishi dostonida tasodifiy emas. Buni shoirning soʻz qoʻllashdagi va tasvir yaratishdagi oʻziga xos mahorati sifatida eʼtirof etish mumkin.

Bu yel Iso anfosin isbot etar

Ki, bogʻ ichra ihyoi amvot etar.

***Bahoriy bulut** pildek bedarang,*

Qilur jilva har yon, bori pilrang. (tasvirni boshlovchi baytlar, rivojaltiriluvchi fikr)

*Bu fasl ichrakim **tong yeli** jon berur,*

***Bulut qatras**i obi hayvon berur. (tasvirni tugallovchi baytlar, xulosaviy fikr)*

Bahoriy tasvirga oid leksik birliklarning doston matnidagi oʻrni. Qiyosiy jadval:

Leksik birliklarni semantik va uslubiy jihatdan darajalash	Leksik birliklar(tabiat hodisalari, oʻsimlik nomlari, hasharotlar)
Uyushtiruvchi leksik-semantik birliklar	yel va bulut
Yetakchi leksik-semantik guruh	gullar va oʻsimliklar: sabza, lola, sunbul, sarv, binafsha, nargis, gul(atirgul), nastarin, argʻuvon
LSGni aralash holda qoʻllash	Bulut(bola, fil, sher), terak, gul, chaman, jannat, yomgʻir, arilar

II.4. “Saddi Iskandariy” dostonida qoʻllangan hayvonot nomlari

Oʻzbek tilining tarixiy davrlarida 337 ta hayvonot dunyosiga mansub boʻlgan soʻzlar qoʻllangan boʻlib, bu nomlar Alisher Navoiy asarlarining izohli

lugʻatida qayd etilgan¹. Ulardan 76 tasi chorva mollari nomlari, 71 tasi esa chorva, chorvachilikka doir soʻzlar, 94 ta qush nomlari, 9ta sudralib yuruvchi hayvonlar nomlari, 48 ta yovvoyi va vahshiy hayvonlar nomlari, 41 ta mayda hayvon va jonivorlar nomlari, 6ta suv hayvonlari nomlari, 12 ta afsonaviy hayvonlar nomlari. Tilshunos olimlarimiz havonot dunyosiga mansub soʻzlarni *chorva mollari nomlari, vahshiy hayvonlar nomlari, sudralib yuruvchi hayvonlar nomlari, qushlar nomlari* kabi turlarga boʻladi².

“Saddi Iskandariy” dostonida qoʻllangan hayvonot olamiga oid nomlar xilma-xil. Biz ularning ayrimlarini koʻrib chiqamiz. SHoir dostonida changalzor hayvonlaridan quyidagilarni keltiradi: **babr, sher, pilu kark** kabi. **Kark** Navoiy asarlari lugʻatida izohlanishicha, *govmish va filga oʻxshash hayvon*ʻdir. **Kark** soʻzining **karg** va **kargadan** variantlari lugʻatda qayd etilgan:

Gahi **babr** urub, goh **sher** oʻlturub,

Va gar **pilu kark** – ul daler oʻlturub.(SI, 258-b.)

Quyidagi misolda xonaki hayvonlardan **ot, xachir, teva** soʻzlari qoʻllangan boʻlib, ular Xitoy hoqonining 9 hadyalaridan 3 tasi boʻlgan.

[1]Ming **ot**– borcha **ohutaku goʻrdav**,

Bori **goʻru ohudin** eltib garav.

[2]Yana ming **xachir**, borchasi tezgom,

Sipehri harundek borigʻa xirom.

[3]Yana ming **teva**– har biri koʻhtan,

Falak **pilicha** har biriga badan.(SI, 295-b.)

Birinchi misolda shoir xonakilashtirilgan, yuk tashish va ulov uchun xizmat qiladigan **otni** chopqirlikda **ohu va goʻr** kabi yovvoyi hayvonlarga qiyoslaydi. **Ohutaku** – *kiyikdek chopqir*, demak. Soʻzda **–tak** oʻxshatish qoʻshimchasi va **–u** bogʻlovchisi qoʻllanib ohu soʻzini **ohutaku** shaklini hosil qilgan. **Goʻrdav** esa *chopqir, yovvoyi eshak* degan maʼnoni anglatadi. Bu soʻzning **goʻrtak** varianti ham mavjud. Shoir keyingi misradagi *garav* soʻziga hamohang va qofiyadosh tarzda

¹ Бафоев Б. Ўша манба. 91-б.

² Бафоев Б. Ўша манба. 91-б.

goʻrdav shaklini tanlagan. Ikkinchi misolda *xachirlar* yovvoyi ot(harun)ga oʻxshatilmoqda. Uchinchi misolda esa *teva(tuya)lar* pilga qiyoslanadi. Mana shu 3 baytdagi xonaki hayvonlar yovvoyi hayvonlar bilan birgalikda “hayvonot” paradigmasini hosil qiladi. Ayni paytda ular “xonaki” va “yovvoyi” hayvonlar guruhini hosil qilib, kichikroq LSGga birlashadi. Lekin ularda “yirtqichlik” belgisi yoʻq. Bu belgi changalzor hayvonlariga xos.

Navoiy dostonida ot soʻzini metaforik tarzda qoʻllagan oʻrinlar ham mavjud. Masalan, dengizda suzib borayotgan kemalarni *yigʻoch ot* sifatida tasvirlaydi:

*Yigʻoch otlarin bahr aro chopishib,
Ukush ranj ila bir-birin topishib. (406-b.)*

Quyidagi baytda esa shoir dengiz jonivorlarini tasvirlaydi. Bular *baligʻ*, *nahang* hamda *kashaf(toshbaqa)*. Agar jonivorlardagi `ulkanlik` semasi asosida yondashilsa, soʻzlar tartibi oʻrinli. Chunki dengiz toshbaqalari bu paradigmada belgi ustunligiga ega.

*Ne daryo tubikim, sugʻa ul taraf,
CHiqib gar boligʻ, gar nahang, ar kashaf.(SI,405-b.)*

Quyidagi misolda ham *baligʻ*, *nahang*, *hut* soʻzlari hajm jihatidan darajalangan. Yaʼni *baligʻ nahangga* yem boʻladi, *nahang* esa *hutga* yem boʻladi. *Nahang* soʻzi Navoiy asarlari lugʻati(I tomlik, 458-bet)da timsoh deb ham izohlangan. Lekin bu oʻrinda “yirtqich baliq”(akula) maʼnosida qoʻllangan. Masalan:

*Baligʻlar boʻlub day nahangiga qut,
Tong ermas nahangiki, qut etsa hut. (SI,179-b.)*

Shoir Iskandarga nisbatan *nahang* soʻzini metaforik tarzda qoʻllaydi. Dengiz sayohati tasvirida bu nom tez-tez Iskandarga nisbat berilib turgan. Quyidagi baytda nahang soʻzi aynan shu maʼnoda qoʻllangan:

*Chu maʼmurani tuzdi qilmay darang,
Tengiz mayli qildi, nechukkim nahang.(SI,101-b.)*

II.5. Dostonda tibbiy tushunchalarni ifodalovchi asosiy leksik birliklar

Suqrot Iskandarning inson mijozi bilan bog‘liq savollariga juda qisqa va lo‘nda javob beradi. U asosan inson tabiatini belgilovchi 4 tushunchaning mohiyatini sharhlaydi, bahor fasli barcha insonlar kayfiyatini, ruhiyatini birdek ko‘tarishini, shu sababli sayohatga chiqishga ishtiyoq paydo bo‘lishini ham izohlaydi.

Yer yuzi va undagi odamlarning tabiati to‘rt unsurga bo‘linadi: **issiq, sovuq, ho‘l va quruq; bu esa o‘t va suv, olov va tuproq** demakdir. Inson mana shu unsurlardan tarkib topgan bo‘lib, unga dunyodagi barcha xalqlar tan beradi. Buning biriga tabiblar “quruq-issiq” deb nom qo‘yadilar; ikkinchisini esa “sovuq-ho‘l” deb atadilar; uchinchisiga “quruq-ho‘l” deb nom qo‘ygan bo‘lsalar, to‘rtinchisini “quruq-sovuq” dedilar. Ya’ni:

Borin to‘rt tab’ ettilar e’tibor:

Isiq, sovuq, o‘lu quruq fahm qil.(SI)

Kishi tabiati yuqoridagi to‘rt unsurdan tashkil topgani kabi yer yuzidagi tabiat ham to‘rt faslga bo‘linadi. Fasli bahor bulardan biri bo‘lib, uning tabiati “ho‘l- quruq”dir. Ya’ni:

Ani o‘tu suv, elu tufroq bil,

Ki, inson bulardin murakkabdurur.(SI, 324-b.)

Kishining tabiiy hayoti yana uchga bo‘linib, uch xil sifat kasb etadi. Bu uch sifat — **safro, savdo, balg‘am** deb ataladi, shuningdek, ruh tabiati ham shunga qo‘shiladi. Ya’ni:

Jame’i milalg‘a bu mazhabdurur.

*Birin **horri yobis**, dedi borchaxayl,*

*Birin **borid** aylab **rutubatqa** mayl.*

*Birin **horri rutab** angla bevahmu bim,*

*Birin **boridi yobis** aytur hakim. (SI, 325-b.)*

Bu o‘rinda insonlardagi 4ta mijozning arab tilidagi nomlarini izohlash o‘rinli:

horri yobis-quruq-issiq

boridi yobis – quruq-sovuq

horri rutab- issiq-ho‘l

boridi rutubat- sovuq-ho‘l

Shubhasiz, joni bo‘lgan har kimsa imkoniyati boricha hayot yuritishni istaydi. Shu jihatdan bahor fasli yoqimli bo‘lib, el bu paytda beixtiyor shavq-zavqqa to‘ladi. Bahor havosidan kishi ruhi parvarish topadi. Shuning uchun ham bu fasl kelishi bilan tabiat beixtiyor odamni o‘ziga tortadi

Qachon zohir o‘ldi sanga bu usul,

Tabiat bu nav’-o‘q topibdur fusul.

Alardin biri keldi fasli bahor

Ki, bordur tabiat anga ratbu hor.

Chu bu faslg‘a keldi tab‘i hayot,

Yana uchga uch tab‘ bo‘ldi sifat

*Ki, **safrou savdou balg‘amdurur,***

Vale ruh tab‘i munga zamdurur.

Shak ermaski, har kimsakim joni bor,

Hayotin tilar ulcha imkoni bor.

Bu ma‘nidin ul fasl erur dilpazir

Ki, yo‘q elga mayl aylamakdin guzir.

Necha sirridin elga yo‘qtur shuur,

Vale yo‘q tabiat ishinda qusur.

Chu andin etar ruhg‘a parvarish,

Anga etsa bexost aylar kashish. (SI, 325-b.)

II.6.Dostonda qo‘llanilgan milliy-madaniy leksik birliklar

Alisher Navoiy dostonda lingvomadaniy birlik sifatida **to‘y** leksemasini ham qo‘llaganki, matnda bu leksik birlik bilan bog‘liq holda bir qator uyadosh so‘zlar keltirilgan. Masalan: **gulu sabza ayyomi, shahru ko‘y, ayoqchi, ayyomi**

ayshk tarab, fasli navro‘z, mug‘anniy, chinga vaznida chang, navo chekkil, hay-hay o‘lang, surud, sur, yor-yor.

Gulu sabza ayyomida bo‘ldi to‘y,

Bo‘lub gulshan oyin bila shahru ko‘y.

Ayoqchi, ketur jomni lab-balab

Ki, to‘y o‘ldi ayyomi ayshu tarab

Ki, bu sur erur olamafro‘z ham,

Xususan erur fasli navro‘z ham.

Mug‘anniy tuzub chinga vaznida chang,

Navo chekki hay-hay o‘lang, hoy o‘lang,

Desang senki: jon qardoshim yor-yor!

Men aytayki: munglug‘ boshim yor-yor!

Navoiy, chu sarmanziling CHingadur,

Surudung dog‘i sur aro chingadur

Ayolg‘ung necha yor-yor o‘lg‘usi,

Mening yig‘larim zor-zor o‘lg‘usi.(SI, 319-b.)

XV asrda shoir tilidan kuylangan yor-yor ohangi, vazni va qo‘shiqning so‘zlari xuddi bugungi kundagidek jaranglaydi: *Desang senki: jon qardoshim yor-yor! Men aytayki: munglug‘ boshim yor-yor! Ayolg‘ung necha yor-yor o‘lg‘usi, Mening yig‘larim zor-zor o‘lg‘usi.*

Bu baytda **ayolg‘u** so‘zi o‘lan, ashula ma’nosida qo‘llangan. **Ayolg‘u**- 1. Muzika asboblaridan biri. 2. O‘lan, ashula, alla, kuy, ohang, ta’sirli qo‘shiq. (NAL, 31-b.)

Bob yuzasidan xulosa

Matn orqali ifodalangan konsept verbal bosqichda predmet va hodisalar munosabatini aks ettiruvchi tipik vaziyatlar haqidagi axborot sifatida namoyon bo‘ladi. Badiiy asarlarda matn vositasida ifodalangan konsept asosan individual-muallifiy hamda badiiy konsept sifatida namoyon bo‘lib, muayyan tushuncha haqidagi bilimlarga muvofiq keladi. Bunda matn makropropozitsiyasida tavsiflanayotgan konseptning so‘zlovchi uchun ahamiyatli bo‘lgan biror jihati o‘z ifodasini topadi. Dostonda *kema, yer, tuhfa* leksik birliklar bilan bog‘liq konseptlar bayon qilindi. Yer sharining sinonimlari tarkibida *ulug‘roq kesak* leksemasining qo‘llanilishi shoir ijodiga xos alohida leksik xususiyat.

“Saddi Iskandariy” dostonidagi “tuhfa” leksemasi konsept sifatida bir qator leksik birliklarni qamrab oladi: *otlar, tuyalar, xachirlar, [bir ming to‘qqiz yuz xil] uy jihozlari, yashil tusli may quyadigan idishlar, chinni asboblari, [Mengizlari gul-gul, mijalari xor, Qabog‘lari keng-keng, og‘izlari tor] kanizlar, haqiqat oynasi, Chin go‘zali.*

Dostonda Xitoy hoqonining Iskandarga hadya etilgan tortiqlar soni aniqlandi. Natijada 6902 (oxirgi 2 tuhfani bilan qo‘shib hisoblaganda) miqdorini tashkil etuvchi tuhfa soni ma‘lum bo‘ldi. Ammo bu miqdorning to‘g‘riligiga bir shubha bor. “Xamsa”ning 525 yilligi munosabati bilan “Yangi asr avlodi” nashriyoti tomonidan 2010 yilda chop etilgan “Saddi Iskandariy” dostonining nasriy bayonida berilgan tuhfa sonining adadi 1000tadan emas 9000tadan deb ko‘rsatilgan. Dostonning www.ziyouz.com kutubxonasidan o‘rin olgan nazmiy va nasriy variantlarida tuhfa soni adadi ta‘kidlaganimizdek, 1000 tani tashkil etadi. Birgina uy jihozlari soni 1900 ta deb berilgan. Yana shunisi ham borki, xitoyliklar odatiga ko‘ra to‘qqiz-to‘qqiz taomilida tuhfa 9 turda bo‘lishi kerak edi. Dostonning 2 xil nasriy varianti solishtirilganda ham

tuhfalarning 8 turdaligi aniqlandi. Faqat she'riy matndagi quyidagi bayt tanqidiy matnga kiritilmay qolganini hisobga olsak, tuhfalar adadi 9 taga yetadi. Shu tariqa umumiy hisob ham o'zgaradi: 7902ta. Nasriy matnlarda qayd etilmagan in'om yashil rangdagi hamda may quyiladigan idish(avoniyu zarf)lardir. Chunonchi: *Yana yashmdin ming avoniyu zarf, Latofat aro bir-biridin shigarf.* (SI,296-b.)

Dostonda *oltin* leksemasi alohida semantik xususiyatlarga ega ekanligi aniqlandi. Iskandarning o'limi oldidan xastalangan jismining kuchli isitmada yonishi alkimyo sinoatlaridandir. Iskandar valiy sifatida ruhiy kamolotga erishishi, sof oltinga aylanishi uchun ana shu isitma otashida toblanishi va bu qazo kimiyosidagi so'nggi jarayonni bosib o'tishi lozim edi. Ana shunda tom ma'noda misning oltinga aylanish xossasi namoyon bo'ladi.

Obyektiv olamning sistemadan iborat ekanligi, uning ifodalovchisi bo'lgan til ham sistema ekanligi, tilshunoslik fani sistemani, ya'ni til sistemalarini o'rganishi e'tirof etilgan fakt. Bu, ayniqsa, tilning lug'at tarkibida, leksikasida aniq ifodasini topadi.

Bahoriy tasvirga oid leksik birliklarni semantik va uslubiy jihatdan darajalash mumkin. Uyushtiruvchi leksik-semantik birliklar, yetakchi leksik-semantik guruh, ma'noviy guruhni aralash holda qo'llash kabi.

“Saddi Iskandariy” dostonida qo'llangan hayvonot olamiga oid nomlar xilma-xil. Shoir dostonida changalzor hayvonlaridan quyidagilarni keltiradi: *babr, sher, pilu kark* kabi. *Kark* Navoiy asarlari lug'atida izohlanishicha, *`govmish* va *filga o'xshash hayvon* `dir. *Kark* so'zining *karg* va *kargadan* variantlari lug'atda qayd etilgan. Dostonda xonaki hayvonlardan *ot, xachir, teva* so'zlari qo'llangan bo'lib, ular Xitoy hoqonining 9 hadyalaridan 3 tasi bo'lgan. SHoir *otni* chopqirlikda *ohu* va *go'r* kabi yovvoyi hayvonlarga qiyoslaydi. *Ohutaku* – *kiyikdek chopqir*, demak. So'zda –*tak* o'xshatish qo'shimchasi va –*u* bog'lovchisi qo'llanib *ohu* so'zini *ohutaku* shaklini hosil qilgan. *Go'rdav* esa *chopqir, yovvoyi eshak* degan ma'noni anglatadi. Bu so'zning *go'rtak* varianti ham mavjud. SHoir keyingi misradagi *garav* so'ziga hamohang va qofiyadosh tarzda *go'rdav* shaklini tanlagan.

Dostonda tevgom *xachirlar yovvoyi ot* (harun)ga oʻxshatilgan boʻlsa, *teva(tuya)lar pilga* qiyoslanadi. Mana shu 3 baytdagi xonaki hayvonlar yovvoyi hayvonlar bilan birgalikda “hayvonot” paradigmasini hosil qiladi. Ayni paytda ular “xonaki” va “yovvoyi” hayvonlar guruhini hosil qilib, kichikroq maʼnoviy guruhga birlashadi.

UMUMIY XULOSA

Alisher Navoiy oʻz asarlarida oʻzbek tilining leksik boyliklaridan, sinonimlari va omonimlaridan, xalq maqollari va matallaridan, frazeologik, idiomatik birikmalaridan, jumla tuzilishidan keng foydalangan. Natijada leksik va grammatik meʼyorlarni maʼlum qolipga, tartibga solishga intilgan.

Alisher Navoiy shoh Iskandar tilidan uzoq muddatli sayohat strategiyasini bayon qilar ekan, mazkur strategik loyiha juda aniq hisob-kitoblarga asoslangan ediki, ushbu puxta ishlab chiqilgan ijtimoiy- siyosiy va iqtisodiy loyiha Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan 2017-2021 yillarga moʻljallangan harakat strategiyasining aynan tarixiy aspektdagi ifodasidir.

“Saddi Iskandariy” dostonini leksik-semantik guruhlar asosida tadqiq etish ijodkorning tilning leksik zahirasidan foydalanish imkoniyatlarini atroflicha yoritishda, bu birliklarning oʻxshashlik qatori(paradigmasi)dagi mavqei xususida xulosalar berishda muhim ahamiyatga ega. Dostonda shaxs paradigmasi yetakchilik qiladi. Bu paradigma aʼzolarining qoʻllanishida ayrim tarixiy va uslubiy jihatlar koʻzga tashlanadi. Alisher Navoiy dostonda *bola*, *chaqaloq*, *goʻdak* kabi leksik birliklarining forsiy ekvivalentidan farzand leksemasidan foydalangan. SHoir farzand soʻzini arab tilidagi muqobilini ham qoʻllaydi. Bu soʻz (***qurratul-aynu***) ham koʻz nuri, ham farzand maʼnosida tushunish mumkin. SHunisi eʼtiborliki, shoir baytda pleonazmgga yoʻl qoʻyadi, ***qurratul-aynu*** va ***farzand*** soʻzlarini yonma-yon keltiradi(*Ani qurratul-aynu farzand etay*). Soʻzni bu kabi takrorlash chaqaloqni ikki karra – jon-jon deb farzand sifatida qabul qilinganligini ham anglatishi va yana soʻzning ikki til birligi ekanligi ham, bu soʻzni turli tillarda takrorlash shoh uchun huzur-halovat bagʻishlaganini anglatishi ham mumkin. Dostonda ***oʻgʻil*** soʻzi qoʻllanmagan, ammo ***qiz*** soʻzi 7 oʻrinda qoʻllangan.

Dostonda **yigit** leksemasi ham nafaol, 3 o‘rindagina qo‘llangan. Shoir dostonda kelin so‘zining **arus** variantidan foydalangan, dostonda **kuyov**, **xotin** va **er** so‘zlari uchramaydi.

Navoiy dostonga **ya’juj** tushunchasini olib kirar ekan, bu leksema na hayvonot olami paradigmasidan, na shaxs paradigmasidan o‘rin oladi. *Ya’juj* afsonaviy tushuncha sifatida “shaxs emaslik”, “hayvon emaslik” kabi belgilarni namoyon qiladi. **Ya’juj**— afsonaga ko‘ra, xunuk bashara, bahaybat, hamma narsani nobud qiluvchi, odamxo‘r mahluq. Dostonning yetakchi leksik birligi sanaladi.

Matn orqali ifodalangan konsept verbal bosqichda predmet va hodisalar munosabatini aks ettiruvchi tipik vaziyatlar haqidagi axborot sifatida namoyon bo‘ladi. Badiiy asarlarda matn vositasida ifodalangan konsept asosan individual-muallifiy hamda badiiy konsept sifatida namoyon bo‘lib, muayyan tushuncha haqidagi bilimlarga muvofiq keladi. Bunda matn makropropozitsiyasida tavsiflanayotgan konseptning so‘zlovchi uchun ahamiyatli bo‘lgan biror jihati o‘z ifodasini topadi. Dostonda *kema*, *yer*, *tuhfa* leksik birliklar bilan bog‘liq konseptlar bayon qilindi. Yer sharining sinonimlari tarkibida *ulug‘roq kesak* leksemasining qo‘llanilishi shoir ijodiga xos alohida leksik xususiyat.

“Saddi Iskandariy” dostonidagi “tuhfa” leksemasi konsept sifatida bir qator leksik birliklarni qamrab oladi: *otlar*, *tuyalar*, *xachirlar*, [*bir ming to‘qqiz yuz xil*] *uy jihozlari*, *yashil tusli may quyadigan idishlar*, *chinni asboblar*, [*Mengizlari gul-gul*, *mijalari xor*, *Qabog‘lari keng-keng*, *og‘izlari tor*] *kanizlar*, *haqiqat oynasi*, *CHin go‘zali*.

Dostonda Xitoy hoqonining Iskandarga hadya etilgan tortiqlar soni aniqlandi. Natijada 6902(oxirgi 2 tuhfani bilan qo‘shib hisoblaganda) miqdorini tashkil etuvchi tuhfalar soni ma’lum bo‘ldi. Ammo bu miqdorning to‘g‘riligiga bir shubha bor. “Xamsa”ning 525 yilligi munosabati bilan “Yangi asr avlodi” nashriyoti tomonidan 2010 yilda chop etilgan “Saddi Iskandariy” dostonining nasriy bayonida berilgan tuhfalarning adadi 1000tadan emas 9000tadan deb ko‘rsatilgan. Dostonning www.ziyouz.com kutubxonasidan o‘rin olgan nazmiy

va nasriy variantlarida tuhfarlar adadi ta'kidlaganimizdek, 1000 tani tashkil etadi. Birgina uy jihozlari soni 1900 ta deb berilgan. Yana shunisi ham borki, xitoyliklar odatiga ko'ra to'qqiz-to'qqiz taomilida tuhfarlar 9 turda bo'lishi kerak edi. Dostonning 2 xil nasriy varianti solishtirilganda ham tuhfarlarning 8 turdaligi aniqlandi. Faqat she'riy matndagi quyidagi bayt tanqidiy matnga kiritilmay qolganini hisobga olsak, tuhfarlar adadi 9 taga yetadi. SHu tariqa umumiy nisob ham o'zgaradi: 7902ta. Nasriy matnlarda qayd etilmagan in'om yashil rangdagi hamda may quyiladigan idish(avoniyu zarf)lardir. Chunonchi: *Yana yashmdin ming avoniyu zarf, Latofat aro bir-biridin shigarf.*(SI,296-b.)

Dostonda *oltin* leksemasi alohida semantik xususiyatlarga ega ekanligi aniqlandi. Iskandarning o'limi oldidan xastalangan jismining kuchli isitmada yonishi alkimyo sinoatlaridandir. Iskandar valiy sifatida ruhiy kamolotga erishishi, sof oltinga aylanishi uchun ana shu isitma otashida toblanishi va bu qazo kimiyosidagi so'nggi jarayonni bosib o'tishi lozim edi. Ana shunda tom ma'noda misning oltinga aylanish xossasi namoyon bo'ladi. Ya'ni "*Ne kibrit, gugirdi ahmar ham ul, Ne gugird, iksiri akbar ham ul*"bois edi. Shu o'rinda Navoiy semantik takrorning klimaks turidan foydalanadi. Ma'noni quyi darajadan yuqori darajaga tomon kuchaytirib ifodalaydi. Bu oltingugurt(kibrit) ham emas, qizil gugurt(gugirdi ahmar) ham emas, balki iksiri akbardir.

Obyektiv olamning sistemadan iborat ekanligi, uning ifodalovchisi bo'lgan til ham sistema ekanligi, tilshunoslik fani sistemani, ya'ni til sistemalarini o'rganishi e'tirof etilgan fakt. Bu, ayniqsa, tilning lug'at tarkibida, leksikasida aniq ifodasini topadi.

Bahoriy tasvirga oid leksik birliklarni semantik va uslubiy jihatdan darajalash mumkin. Uyshtiruvchi leksik-semantik birliklar, yetakchi leksik-semantik guruh, ma'noviy guruhni aralash holda qo'llash kabi. Bu leksik birliklar *yel va bulut; gullar va o'simliklar: sabza, lola, sunbul, sarv, binafsha, nargis, gul(atirgul), nastarin, arg'uvon; bulut(bola, fil, sher), terak, gul, chaman, jannat, yomg'ir, arilar*. Bu birliklar o'z paradigmatic qatorida yoki aralash qo'llanishi mumkin.

“Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llangan hayvonot olamiga oid nomlar xilma-xil. Shoir dostonida changalzor hayvonlaridan quyidagilarni keltiradi: *babr*, *sher*, *pilu kark* kabi. *Kark* Navoiy asarlari lug‘atida izohlanishicha, *govmish* va *filga o‘xshash hayvon*‘dir. *Kark* so‘zining *karg* va *kargadan* variantlari lug‘atda qayd etilgan. Dostonda xonaki hayvonlardan *ot*, *xachir*, *teva* so‘zlari qo‘llangan bo‘lib, ular Xitoy hoqonining 9 hadyalaridan 3 tasi bo‘lgan. Shoir *otni* chopqirlikda *ohu* va *go‘r* kabi yovvoyi hayvonlarga qiyoslaydi. *Ohutaku* – *kiyikdek chopqir*, demak. So‘zda –*tak* o‘xshatish qo‘shimchasi va –*u* bog‘lovchisi qo‘llanib *ohu* so‘zini *ohutaku* shaklini hosil qilgan. *Go‘rdav* esa *chopqir*, yovvoyi *eshak* degan ma‘noni anglatadi. Bu so‘zning *go‘rtak* varianti ham mavjud. Shoir keyingi misradagi *garav* so‘ziga hamohang va qofiyadosh tarzda *go‘rdav* shaklini tanlagan. Dostonda tezgom *xachirlar yovvoyi ot*(harun)ga o‘xshatilgan bo‘lsa, *teva(tuya)lar pilga* qiyoslanadi. Dostonda qo‘llangan xonaki hayvonlar yovvoyi hayvonlar bilan birgalikda “hayvonot” paradigmasini hosil qiladi. Ayni paytda ular “xonaki” va “yovvoyi” hayvonlar guruhini hosil qilib, kichikroq LSGga birlashadi. Lekin ularda “yirtqichlik” belgisi yo‘q. Bu belgi changalzor hayvonlariga xos. Navoiy dostonida *ot* so‘zini metaforik tarzda(*yig‘och ot - kema*) qo‘llagan o‘rinlar ham mavjud. Dostonda dengiz jonivorlaridan *balig‘*, *nahang*, *kashaf(toshbaqa)*, *hut* leksemalarining qo‘llanishida muayyan tartibi mavjud. *Balig‘*, *nahang*, *hut* so‘zlari hajm jihatidan darajalangan. Ya‘ni *balig‘ nahangga* yem bo‘ladi, *nahang* esa *hutga* yem bo‘ladi. *Nahang* so‘zi Navoiy asarlari lug‘atida timsoh deb ham izohlangan. Lekin dostonida “yirtqich baliq”(akula) ma‘nosida qo‘llanganligi ma‘lum. SHoir Iskandarga nisbatan *nahang* so‘zini metaforik tarzda qo‘llagan. Dengiz sayohati tasvirida bu nom tez-tez Iskandarga nisbat berilib turgan.

Dostonda kishi tabiatidagi 4ta mijoz arabcha leksemalar bilan ifodalanganligi kuzatildi. Ular horri yobis(quruq-issiq), boridi yobis (quruq-sovuq), horri rutab(issiq-ho‘l), boridi rutubat (sovuq-ho‘l) kabi o‘zlashmalardir. Bunga sabab Navoiy davridagi tibbiy atamalarining arab tilida qo‘llanishi. Shuningdek, bu atamalarining antik davrga moslashtirish maqsadida shunday tarzda qo‘llanganligidir.

Alisher Navoiy dostonida lingvomadaniy birlik sifatida to'y leksemasini ham qo'llaganki, matnda bu leksik birlik bilan bog'liq holda bir qator uyadosh so'zlar keltirilgan. Masalan: *gulu sabza ayyomi, shahru ko'y, ayoqchi, ayyomi ayshk tarab, fasli navro'z, mug'anniy, chinga vaznida chang, navo chekkil, hay-hay o'lang, surud, sur, yor-yor.*

XV asrda shoir tilidan kuylangan yor-yor ohangi, vazni va qo'shiqning so'zlari xuddi bugungi kundagidek jaranglaydi: *Desang senki: jon qardoshim yor-yor! Men aytayki: munglug' boshim yor-yor! Ayolg'ung necha yor-yor o'lg'usi, Mening yig'larim zor-zor o'lg'usi.* Bu o'rinda ayog'u so'zi ko'p ma'noliligi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. -Тошкент: Маънавият, 2008. 47-бет
2. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза, 2017 йил 14 январ. - Тошкент: Ўзбекистон, 2017. 47-б.
3. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. –Т.: Фан, 1984.
4. Азимов И. Алишер Навоийнинг насрий асарларида кесим марказли бош бўлакли гапларнинг шаклий ва мазмуний хусусиятлари: НДА. – Тошкент, 2001.
5. Алишер Навоий. Қомусий луғат. II жилд. -Тошкент: Шарқ, 2017.
6. Аширбоев С. Алишер Навоийнинг насрий асарларидаги содда гапларнинг таркибий ва маъно хусусиятлари: ДДА. –Тошкент, 1990.
7. Бафоев Б. Кўҳна сўзлар тарихи. Тошкент: “ФАН”, 1991;
1. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. –Т., 1983. 20-б; www.ziyouz.Navoiy
2. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. –Тошкент: “ФАН”, 1983.
3. Бегматов э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Т.: ФАН, 1985. 19-б.
4. Бегматов э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. - Тошкент: Фан, 1985.- Б. 116.

5. Бегматов э., Авлоқулов Я. Ўзбек тили ономастикасининг макроқўлами таркиби // Ўзбек тили ва адабиёти. -Т., 2007, №5. 33-б.
6. Ёқубов Ш. Навоий асарлари ономастикаси. НДА. –Тошкент, 1994;
7. Исақова З. Алишер Навоийнинг “Мажолис ун-нафоис” асаридаги ижтимоий- сиёсий лексика: НДА. –Тошкент, 2010.
8. Искандарова Ш.М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони):НДА. -Тошкент, 1999.
9. Қодиров М. Функционирование падежных форм в языке прозы Алишера Навои: НДА. –Ташкент, 1978.
10. Навоий асарлари луғати(НАЛ). Бир жилдлик. –Тошкент, 1972.523-б.
11. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. –Тошкент : Ўқитувчи, 1995.
12. Нурмонов А. Танланган асарлар // Талаб, эҳтиёж, имконият. III жилд. - Т.: “Академнашр”, 2012. 312-б.
- 13.Раҳматуллаев Ш. Тил қурилишининг асосий бирликлари. –Т.: Университет, 2002.
14. Раҳматуллаев Ш.Ҳозирги адабий ўзбек тили. I қисм. Т.: “Мумтоз сўз”,2010. 92-б.
15. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. -Тошкент: Ғ.Ғулом, 1979;
16. Рустамов А. Фонетико-морфологические особенности языка Алишера Навои: ДДА. -Ташкент: Фан, 1966;
- 17.Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. –Жиззах: Сангзор, 2006.50-б.
- 18.Ўзбекистон миллий энциклопедияси. -Тошкент, 2005. 10-ж.,15-б.
- 19.Умарова Н. Алишер Навоий ғазаллари мақтасида сабаб ва оқибат муносабатининг ифодаланиши: НДА. –Фарғона, 2005;
- 20.Ҳайитметов Ф.А. Алишер Навоий ғазаллари қофиясида мантиқ урғусининг берилиши: НДА. –Тошкент, 1998.
- 21.Ҳожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. -Тошкент: ФАН, 2010. 103-б.

22. Алишер Навоий. Садди Искандарий. Насрий баёни.www.ziyo.uz.comkutubxonasi.

23. Алишер Навоий. Садди Искандарий. Назмий баёни.www.ziyo.uz.comkutubxonasi.